



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda На посты

2023-yil
22-iyun
payshanba

№ 25 (4615)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz



AZIM POYTAXTNING
OSOYISHTALIGI YO'LIDA



Toshkent shahar
Ichki ishlar bosh
boshqarmasi idora
va tizimlarida
xizmat qilayotgan
xodimlar faoliyatiga
bag'ishlangan
qo'shsahifa
materiallarini
gazetamizning
8-9-sahifalarida
o'qiysiz.



Қарор ва ижро

ЖАМОАТЧИЛИК КЕНГАШИ ЙИФИЛИШИ

муҳим таклиф ва ғоялар илгари сурилди

ИИВ Мажлислар залида Ички ишлар вазирлиги ҳузурида ташкил этилган Жамоатчилик кенгашининг йиғилиши бўлиб ўтди.



Худудий ички ишлар орғанларида жамоатчилик кенгаши билан видеоселектор тарзида ўтказилган ушбу тадбир аввалида вазир ўринbosари, генерал-майор Азизбек Икрамов иштирокчиларга кенгаш раиси, ўринbosари ҳамда аъзоларини таништириди.

– Жамоатчилик кенгашини ташкил этишдан кўзланган асосий мақсад – соҳадаги муаммо ва камчиликларни муҳокама қилиш, йўл қўйилаётган хато ва нуқсонларни рўйирост кўрсатиш ҳамда унга муносабат билдириш ва шаффофликни таъминлашдан иборатdir, – деди вазир ўринbosари. – Чунки ахборот-медиа маконида тарқатилаётган ички ишлар органлари тизими билан боғлиқ ҳолатлар таҳлил қилинганида, жорий йилнинг 5 ойи давомида ходимлар фаолиятига оид 70 та турли мазмундаги салбий материаллар жойлаштирилган бўлиб, бу эса айрим соҳавий хизмат ва

худудларда ҳали қилиниши лозим бўлган бир қатор ишлар борлигини кўрсатиб турибди.

Шу билан бирга, ижтимоий тармоқларда ички ишлар органлари билан боғлиқ салбий ҳабарлар жойлаштириш 2022 йилда 36 фоизга, жорий йилнинг шу давригача эса 22 фоизга камайганлиги айтиб ўтилди. Аммо бу каби ишларга тўлиқ барҳам берилмаганлиги боис, ҳали соҳада амалга оширилиши лозим бўлган кўплаб вазифалар борлигидан дарак беради.



ИИВ Жамоатчилик кенгаши раиси, Ўзбек миллий

академик драма театри директори, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон ҳалқ артисти Ёдгор Саъдиев кенгашининг ҳуқуқ ва мажбуриятларига тўхталаркан, ҳар бир худуднинг кенгаш фаолияти бўйича белгиланган вазифалар ва муаммоларни бартараф этишдаги ҳамкорлиги тўғрисида ўзининг фикр-мулоҳазаларини билдириди ҳамда ходимлар билан боғлиқ кўнгилсиз ҳолатларнинг олдини олишда ушбу кенгашининг ўрни бекиёс эканлигини қайд этди.

Йиғилишда кенгаш раисининг ўринbosари, Ички ишлар вазири маслаҳатчиси, генерал-полковник Зокиржон Алматов бугунги кунда осойишталигимиз посбонларининг бекаму кўст фаолият олиб бориши учун ҳукуматимиз ва вазирлик раҳбарияти томонидан барча шароит ва имкониятлар яратиб берилганига қарамасдан, айрим ходимлар хизматга совуқонлик



билан ёндашаётгани, бу эса аҳоли ўртасида эътиrozларга сабаб бўлаётганини таъкидлади. Шунингдек, Зокиржон Алматов бу каби салбий ҳолатларга чек кўйиш учун ҳар бир ходим ўз устида тинимсиз изланиши, келажагимиз эгалари бўлмиш ёш авлодни ҳақиқий ватанпарварлик руҳида тар-

биялаш ҳамда жамиятимизни бутунлай жиноятдан холи худудга айлантириш борасида ўзининг таклифларини ҳам билдириб ўтди.

Жамоатчилик кенгаши аъзолари – Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети ректори Шерзодхон Қудратхўжа ҳамда «Qalampir.uz» сайти бош мухаррири Қамариддин Шайхов, шунингдек, худудлардаги жамоатчилик кенгашларининг кўлга киритаётган дастлабки ютуқлари ва олиб бораётган иш услуби бўйича Навоий вилояти раисининг фикрлари ҳам катта қизиқиш билан тингланди.

Михли САФАРОВ,
«Postda» мухбири.



Битирув



ДИПЛОМЛАР ТОПШИРИЛДИ

Нукус «Темурбеклар мактаби» ҳарбий-академик лицейида навбатдаги битирув тадбири бўлиб ўтди.

Унда Ички ишлар вазири ўринbosари, генерал-майор А.Икрамов, Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазири, полковник Б.Торебеков, ҳуқуқни муҳофаза қилиш идоралари вакиллари, ўқувчиларнинг ота-оналари ва бошқа меҳмонлар иштирок этди.

Тадбир аввалида меҳмонлар битирувчи курс ўқувчилари ташабbusи билан

лицейда барпо этилган монументни очиб беришди. Монумент китоб кўринишида бўлиб, унда Президент Шавкат Мирзиёевнинг сўзлари ва «Темур тузулари»дан иқтибослар келтирилган.

Шундан сўнг саф кўриги ўтказилиб, ўқувчиларга диплом, кўкрак нишони ва ҳайдовчилик курсини тамомлагани тўғрисида сертификатлар тантанали равишда топширилди.

Азamat ПИРНИЯЗОВ,
«На посту» мухбири.
Қорақалпоғистон Республикаси.



YETTI YILLIK IZTIROB ORTDA QOLDI

Inson hayoti doim bir maromda kechmaydi. Gohida to'g'ri va egri yo'llarga, turfa sinovlarga ro'baro' kelishi mumkin. Ana shunday paytda ruhan sinmagan, qiyinchiliklarni sabot bilan yengib o'tganlar haqiqiy mard va oljanob kishilardir. 2004-yilda ichki ishlar organlariga ishga kirib, 2016-yilgacha samarali xizmat qilgan mayor Mansur Mirzakarimov ham qismatning kutilmagan sinovlariga duch keldi.

Sohadagi faoliyatini Toshloq tumani IIB huquqburzarliklar profilaktikasi bo'limida boshlagan M. Mirzakarimov keyinchalik o'n yilga yaqin vazirlikning Farg'ona shahridagi Serjantlar tarkibini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida o'qituvchi bo'lib ishladi. 2016-yilda Farg'ona viloyati IIB Patrul-post xizmati batalyoni 4-otryad boshlig'ining xizmat bo'yicha o'rindosari lavozimiga tayinlandi. Aynan shu yili ayrim sabablarga ko'ra, o'zi sevgan va mehr qo'yan kasbidan bo'shatib yuborildi.

Joriy yilning 19-may kuni Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov to-



monidan Farg'ona shahrida o'tkazilgan sayyor qabulda uning yetti yillik iztiroblariga uzil-kesil nuqta qo'yildi. Ichki ishlar vaziri Mansur Mirzakarimovning murojaati va unga aloqador barcha hujjalarni sinchkovlik bilan o'rganib chiqib, shu joyning o'zida mutasaddi rahbarlarga 10 kun muhlat ichida uni ishga tiklab, buyruq chiqarish haqida topshiriq berdi.

Vazir Mansur Mirzakarimovga omad tilar ekan, kelgusida boshqa xodimlarga o'rnak bo'lib, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishga chaqirdi. U esa shu lahzalarda «O'zbekiston Respub-

likasiga sadoqat bilan xizmat qilaman» dedi-yu, beixtiyor quvonchdan yig'lab yubordi.

— Yetti yillik umrim qanday iztirobda o'tgani yolg'iz o'zimga va yaratganga ayon, — deydi mayor Mansur Mirzakarimov. — O'sha kungi holatimni so'z bilan ifodalab berolmayman. Avvalambor, inson qadrini ulug'layotgan yurtboshimizga, adulat va haqiqatni tiklab, yetti yillik iztiroblarimni aritgan Ichki ishlar vaziriga, mena ishonch bildirgan Farg'ona viloyati IIB boshlig'iga hamda sud organlariga minnatdorlik bildiraman. Kelgusida bildirilgan ishonchni

oqlash uchun bor bilmim, kuch-quvvatimni ishga solib, el-yurt osoyishtaligiga munosib hissa qo'shaman.

Farg'ona shahrida istiqomat qiluvchi mayor Mansur Mirzakarimov sayyor qabuldan so'ng ko'p o'tmay, yana egniga xizmat kiyimini kiydi. Hozirda Quvasoy shahar IIB Huquqburzarliklar profilaktikasi bo'linmasida voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog lavozimida xizmat qilmoqda.

Qahramonimiz xizmat qilayotgan Quvasoy shahri Farg'ona shahriga tutashib ketgan. Uyi va ishxonasining orassi qariyb 20 chaqirim masofa. Yuzi yorug' bo'lgan va o'z kasbini yana davom ettirayotgan yurt o'g'loni har kuni erta tongda farzandlari bilan xayralashib, xizmatga otlanarkan, yo'l-yo'lakay amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari ni, mehnat quchog'iga shoshayotgan zamon-doshlarini ko'rib, inson qadri va manfaatlari oly darajada ulug'lanayotgan ana shunday yurtda yashayotganiga shukrona keltiradi.

Abduvosit SIDIQOV,
«Postda» muxbir.
Farg'ona viloyati.



MEHNAT TA'TILI NIMA?

Bu tushunchaga O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodksida shunday ta'rif berilgan: «Har yilgi mehnat ta'tili dam olish va ishlash qobiliyatini tiklash uchun ish o'rni (lavozimi) hamda o'rtacha ish haqi saqlab qolning holda, xodim ishdan ozod etiladigan, xodimga har yili ish yili davomida beriladigan vaqt davridir».

Mazkur Kodeksning 216-moddasiga ko'ra, barcha xodimlar, shu jumladan, o'rindoshlik asosida ishlaydigan xodimlar ham har yilgi mehnat ta'tiliga chiqish huquqiga ega.

Xo'sh, xodimga necha kunlik mehnat ta'tili beriladi?

Kodeksning 217-moddasiga asosan, har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomiyligi yigirma bir kalendar kunni tashkil etadi.

Mehnat qonunchiligidagi uzaytirilgan ta'til ham ko'zda tutilganmi?

Albatta, Kodeksning 218-moddasiga muvofiq, quydagilarga yoshi va sog'lig'inining holati hisobga olingan holda, har yilgi asosiy uzaytirilgan ta'til beriladi:

o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga — o'ttiz kalendar kun;

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga — o'ttiz kalendar kun.

Qo'shimcha ta'til-chi?

Bu ham nazarda tutilgan. Kodeksning 220-moddasida shunday deyiladi: «Xodimga u bitta tashkilotda yoki tarmoqda ishlagan har besh yil uchun davomiyligi ikki kalendar kun bo'lgan, biroq jami sakkiz kalendar kundan ko'p bo'lmagan har yilgi qo'shimcha mehnat ta'tili beriladi».

Ta'tillarning boshqa turlari ham bormi?

Mehnat kodeksining 213-moddasida har yilgi mehnat ta'tilidan tashqari ta'tillarning yana quyidagi turlari sanab o'tilgan:

ijtimoiy ta'tillar;

ish haqi qisman saqlanadigan ta'til;

ish haqi saqlanmaydigan ta'til.

Boshqa ta'tillarning mazmun-mohiyati haqida esa gazetamizning keyingi sonlardan biringa batafsilroq ma'lumot beramiz.

Bobomurod TOSHEV
tayyorladi.



ВАЖНО ПРИНЯТЬ ВЗВЕШЕННОЕ РЕШЕНИЕ

Мафтуна Мизонбоева, возвращаясь вечером со службы, решила на некоторое время уединиться на берегу канала Дустлик. Ей захотелось побыть одной, успокоить взволнованное сердце и только после этого вернуться в объятия своей семьи, маленького ребенка, которые ее ждали. Парк вдоль берега мерцал разноцветными огоньками, ковровые цветы на газонах... Но это не воодушевляло старшего инспектора по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД города Гулистана капитана Мафтуну Мизонбоеву. Ее день был крайне тяжелым, несколько семей, в которых сегодня она побывала, столкнулись со сложностями во взаимоотношениях.

...Мафтуна Мизонбоева отправилась в махаллю сразу после утреннего развода. В эти дни ей приходилось больше заниматься семейными конфликтами. По пути в МСГ «Намуна» она была в раздумьях. Что происходит? Зачем превращать разногласие, которое можно решить добрым словом, в большой раздор? Зачем включать вспыльчивость в случаях, когда необходимо спокойно и взвешено принять решение? Почему это все должно происходить на глазах у детей?

В махалле ее встретили инспектор профилактики, председатель МСГ и женская активистка. Вместе они направились в дом конфликтующей семьи. Дом красивый, ухоженный. Как оказалось, глава семейства – бизнесмен, ему принадлежит ряд торговых точек в оживленных районах города. И супруг, и его жена имеют по солидному автомобилю. В семье пятеро детей. Конфликт возник из-за ревности супруги. Женщина, «покопавшись» в телефоне мужа, обнаружила «подозрительную» переписку. Разразился скандал с взаимными оскорблениеми.

В ходе беседы стало известно, что женщина испытала сильное душевное потрясение. Она кричала: «Я покончу с собой, мне надоело жить», а муж молча наблюдал за этим. Индивидуальные беседы многое прояснили. К работе с семьей был подключен психолог, жаркие споры постепенно стихли...

Следующий адрес – дом, где проживает Манзура Муминова (здесь и далее имена и фамилии фигурантов изменены). Она – бывшая банковская служащая. За недостачу жен-



щине назначено наказание в виде ограничения свободы. Она замужем во второй раз. У ее супруга первая жена умерла, есть сын, которому двадцать пять лет, он женат. Манзура, родившая в данном браке мальчика, стала для молодого человека объектом всяческих унижений. Ситуация осложнялась тем, что в трехкомнатной квартире жили две семьи. Манзура, не желая больше терпеть к себе такое отношение, обратилась в органы внутренних дел. На минувшей неделе ей был выдан охранный ордер. После состоявшейся беседы, инспектор по вопросам женщин сделала заключение: уровень конфликтности в семье снизился. Молодой человек оставил отца и мачеху в покое, пытается найти отдельное жилье.



в отношении мужчины», – сказала она, обращаясь к коллеге.

Тем временем на связь вышел начальник ОВД города. Он сообщил, что в областной больнице Гулистана произошел конфликт с медсестрой, дал указание разобраться и доложить. Капитан немедленно направилась в лечебное учреждение.

Прибыв на место, капитан Мафтуна Мизонбоева установила, что женщина, Назира Жабборова, работающая медсестрой, находится в разводе. Однако бывший муж продолжает ее преследовать: время от времени приезжает в больницу и устраивает скандалы, нарушает общественный порядок. В отношении мужчины составили административный протокол.

Настал вечер. Но еще есть работа. Сотрудница подготовила аналитическую справку о состоянии и динамике женской преступности, о выдаче охранных ордеров...

* * *

...К берегу канала, от которого веяло прохладой, где стояла Мафтуна, подошли ее муж с ребенком. По телефону супруг узнал, что жена неподалеку от дома. Маленький сын, широко улыбаясь, раскрыв объятия, подбежал к маме. Нет слов, чтобы описать чувства, которые испытывают мать и ребенок в такие минуты.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
корреспондент «Postda».
Сырдарьинская область.



БИЛЕТ В ОДИН КОНЕЦ...

58-летний К. Р., проживающий в городе Ташкенте, обратился в органы внутренних дел с заявлением, в котором пояснил, что на канале под названием «Aviasales.uz» мессенджера Telegram он познакомился с неизвестным, на счет банковской карты которого для покупки онлайн-билета пе-

речислил деньги в размере 21 500 000 сумов. Однако лицо, обещавшее приобрести ему билет, удалило всю переписку, завладело денежными средствами.

В результате оперативно-розыскных мероприятий подозрение в совершении противоправного деяния пало на ранее

судимого 27-летнего М. С., проживающего в Янгиурганском районе Наманганской области. По данному факту возбуждено уголовное дело по признакам состава преступления, предусмотренного ч. 3 ст. 168 («Мошенничество») УК Республики Узбекистан, ведется следствие.

Центр кибербезопасности Оперативно-розыскного департамента МВД Республики Узбекистан.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni

«JURNALISTIKA – HAYOTIM MAZMUNI»

– deydi iste'fodagi podpolkovnik Bo'riboy Omonzoda

Farg'ona viloyatining Yoz-yovon tumanidagi Qorapeta qishlog'ida istiqomat qiluvchi ichki ishlar organlari faxriysi, iste'fodagi podpolkovnik Bo'riboy Omonzoda qalamdan qadr topgan fidoyi jurnalistlardan biri sanaladi.

Bolalikdan matbuotga mehr qo'ygan Bo'riboy aka o'zi tug'ilib o'sgan Yozyovon tumani hokimligining «Markazi Farg'ona» gazetasida dastlab jamoatchi muxbir, keyincharlik muxbir, bo'lim mudiri vazifalarida ishlab, jurnalistika olamiga dadil qadamlar bilan kirib kelgan.

1994-yilda Ichki ishlar vazirligining «Postda» va «Ha postu» gazetalariga Farg'ona vodiysi bo'yicha o'z muxbir vazifasiga ishga olingach, Bo'riboy Omonzodaning hayoti va ijodida tub burilish ro'y berdi. Ushbu nashrlarda muxbir bo'lib ishlab, ichki ishlar organlari faoliyatiga oid dolzarb maqolalari bilan tanilgan yosh jurnalist yigitni 1995-yilda Farg'ona viloyati IIB rahbariyati boshqarma qoshidagi Matbuot byurosi inspektori vazifasiga ishga taklif etishdi. El-yurt osoyishtaligiga munosib hissa qo'shishni maqsad qilgan yosh jurnalist boshqarma rahbariyatining taklifini qabul qildi.

Shundan so'ng qahramonimiz 1995-yildan 2007-yilga qadar

Farg'ona viloyati IIB Matbuot xizmatida samarali faoliyat ko'rsatdi. 2007-yili viloyat IIB Shaxsiy tarkib bilan ishlash xizmati boshlig'i o'rinnbosari – Shaxsiy tarkibni tarbiyalash va ijtimoiy-huquqiy himoya qilish bo'linmasi boshlig'i vazifasiga tayinlandi. Keyinchalik 2009-yilda yana o'z sevimli ishiga qaytdi. 2015-yilda viloyat IIB Inson huquqlarini himoya qilish va yuridik ta'minlash bo'linmasi ommaviy axborot vositalari bilan aloqa guruhi katta inspektor vazifasidan pensiyaga chiqdi.

O'zining huquqiy mavzudagi dolzarb maqolalari va teleko'rsatuvlari bilan yaxshi tanilgan Bo'riboy Omonzoda bugun ham el-yurt xizmatidan to'xtagani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg'ona viloyat boshqarmasi bosh mutaxassis vazifasida mehnat qilmoqda.

– Jurnalistika hayotimning mazmuni aylangan, – deydi qahramonimiz. – Bu sohada ishlash aslida oson emas. Uning mashaqqatlarini yengib o'tish uchun ijodkor puxta bilimga ega, halol va vijdonli bo'lishi kerak. Bir paytlar tuman gazetasida ishlaganimda Umarjon Ismoilov, Alisher Toshqulov, Azimjon Xudoyqulov, Malikjon Boymatov, Odiljon Jalolov kabi ustozlarim menga mohir



jurnalist bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligini o'rgatishgan edi. Bugun esa ustozlarimdan o'rganganlarimni, tajribalarimni sohaga kirib kelayotgan yosh jurnalistlarga baholi qudrat o'rgatib kelyapman.

– Ustozimiz Bo'riboy Omonzoda ichki ishlar organlari tarixi va bugungi faoliyatini yaxshi biladigan, huquqiy mavzularda yozishning hadisini olgan jurnalist, – deydi viloyat IIB Axborot xizmati rahbari, katta leytenant Ismoiljon Sharipov. – Men ham ba'zida u kishining maslahatlariga muhtoj bo'lib turaman. Bilmaganlarimizni

o'rgatadi. Internet rivojlangan bu-gungi davrda axborot xizmatlari oldida turgan vazifalarni, tezkorlik va xolislikni ta'minlash uchun nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini eslatib, zarur tavsiyalar beradi.

Tajribali jurnalist baxtiyor oila sohibi ham sanaladi. Turmush o'rtog'i O'g'ilxon Rahmonova bilan hamjihatlikda 4 nafar farzandni namunali insonlar qilib voyaga yetkazishdi. Ayni paytda 5 nafar shiringina nabiralar ham bor.

Abduvosit SIDIQOV,
«Postda» muxbiri.

Farg'ona viloyati.

Mardlar qo'riqlaydi Vatanni!

QAT'IY, INTILUVCHAN VA INTIZOMLI

**Buxoro viloyatida joy-
lashgan 7536-harbiy qism-
da xizmat qilayotgan oddiy
askar Muhriddin Xo'jamuro-
dov Qashqadaryo viloyatining
Dehqonobod tumanidan.
Sakkiz farzandning kenjası.
U akasi Sadriddinning izidan
borib, harbiylikni tanladi.**

– Maktabni bitirib, Jamoat xavfsizligi universitetiga o'qishga kirmoqchi edim, – deydi u suhbatimiz avvalida. – Ammo otanonam bir uyda bir harbiy yetadi, sen shifokorlikka o'qiysan, deyishdi. Shunda ularni ranjitigm kelmadi. Tumanimizdagи tibbiyot kollejida o'qib, yigitlik burchimni Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan harbiy qismda o'tadim. So'ngra o'sha yerdan yo'llanma olib, Navoiy viloyatidagi 7532-harbiy qismda nazoratchi-o'qchi lavozimida shartnoma asosida xizmat faoliyatini boshladim. Bir yildan keyin 7536-harbiy qism maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi 2-jangovar guruhi katta mutaxassislavozimida vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi komandiri, mayor Yo'Idosh To'rayev. – Ular o'zlariga berilgan topshiriqlarni vaqtida talab darajasida ado etishga odatlangan.

Kichik serjant Adizjon Po'latoev. Buxoro shahrida tug'ilgan. Avtomobil va yo'llar kollejini tutatib, muddatli harbiy xizmatni Milliy gvardiyaga qarashli Andijon shahridagi harbiy qismida o'taydi.



Shu jamoada shartnoma asosida xizmatni davom ettirib, yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida kamarbasta bo'ldi. Hozirda IIV Qorovul qo'shing'ligiga qarashli Buxoro viloyatidagi 7536-harbiy qism Maxsus vaz-

falarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi 1-jangovar guruhi katta mutaxassislavozimida vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi komandiri, mayor Yo'Idosh To'rayev. – Ular o'zlariga berilgan topshiriqlarni vaqtida talab darajasida ado etishga odatlangan,



xizmatchilardan, – deydi harbiy qism Maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzvodi komandiri, mayor Yo'Idosh To'rayev. – Ular o'zlariga berilgan topshiriqlarni vaqtida talab darajasida ado etishga odatlangan,

hamisha izlanishda. Jamoatchilik ishlarida ham faol. Shu boisdan bu yigitlarni jamoamiz faxri, desam, adashmagan bo'laman.

Harbiy qismda «Ustoz-shogird» an'analarini ham keng rivojlangan. Yosh harbiy xizmatchilarga tajribali mutaxassislar murabbiy etib tayinlangan. Ular xizmatni o'tash chog'ida, shogirdlariga turli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligi bo'yicha o'zlarining bilim va malakalarini o'rgatishadi. Yosh harbiylarning kasbiy mahorati oshishiда o'quv-taktik hamda sport mashq'ulotlari ham muhim omil bo'lib kelayotir.

Lavhamiz qahramonlari tajribasini boyitish bilan birgalikda, turli tanlov va musobaqalarda ham faol ishtirok etib, faxrli o'rinnlarni egal-lab kelmoqda. Masalan, o'tgan yili Qarshi dala-o'quv poligonida bo'lib o'tgan tanlovda kuch mashqlari, o'ttiz kilometrli marsh yurish va o'q otish tayyorgarligi bo'yicha sinovlarni muvaffaqiyatli topshirib, ikkisi ham «Dovyurak jangchi» ko'krak nishoni sohibi bo'lishdi.

Mirzoqul AHADOV,
«Postda» muxbiri.

Buxoro viloyati.

БУХОРОДА ИПАК ВА ЗИРАВОРЛАР БАЙРАМИ



Жорий йилнинг 16–18 июнь кунлари Бухоро шаҳрида «ХХ анъанавий халқаро ипак ва зираворлар» фестивали ўтказилди. Мазкур фестивални хавфсиз, тинч ва хотиржам ўтказишида вилоят ички ишлар орғонлари ва бошқа ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар ҳамкорликда туну кун хизмат олиб боришиди.

Уч кун давом этган фестивалда вилоятимиз фольклор-этнографик жамоаларининг чиқишилари, тарихий, бадиий-композицион кўринишлар намойиш этилди. Хушовоз хонандаларнинг кўй-кўшиклари эса йигилганларга хуш кайфият бағишилади.

С.ФАНИЕВА.

Бухоро вилояти.



27 июня – День работников печати и средств массовой информации

РАБОТА ВДОХНОВЛЯЕТ

Оперативно снимать репортажи с места событий, брать интервью, искусно фотографировать может не каждый. Это по силам только профессионалам. Именно такие универсальные сотрудники в пресс-службе УВД Самаркандской области. Сегодня мы хотим рассказать об одном из них – старшем лейтенанте Убайдулло Кучкорове, который после 16 лет работы корреспондентом телевидения начал службу в органах внутренних дел.



В рядах органов правопорядка Убайдулло Кучкоров с 2018 года. Сегодня ни один сюжет о деятельности подразделений УВД или репортаж с места события не готовится без его участия.

– Когда меня приглашали в пресс-службу, я несколько раз отказывался, потому что не представлял себя в правоохранительных органах, – делится наш собеседник. – Покойный отец, Сагдулла Кучкоров, долгие годы трудился преподавате-

лем в одной из школ Иштыханского района, но трудовую деятельность начинал со службы в рядах ОВД. Он всегда хотел, чтобы его дети носили форму. Брат, Ганишер, – ныне подполковник в отставке. Еще один брат, Алишер, тоже служит в правоохранительных органах. Только я решил стать журналистом. Однако судьба распорядилась иначе. Спустя годы все же надел форму. Наша служба связана с большой ответственностью. Постоянно нахожусь

в информационном потоке. Если отвлечься на 10 минут и не обновить новостную ленту, можно упустить важный инфоповод, который потом будет сложно прокомментировать.

В разговоре с нами У. Кучкоров рассказал, как изменилась его творческая натура за годы службы, в чем отличие нынешней его работы от той, когда он являлся журналистом областного телевидения.

– Пресс-секретарь транслирует точку зрения своего ведомства. Кроме того, нужно хорошо знать нормативную базу, систему ведомства, чтобы правильно осветить ту

или иную тему исходя из специфики деятельности, чтобы оперативно ответить на вопросы.

Убайдулло Кучкоров не жалеет, что выбрал этот путь.

– Ежедневно выезжаем на съемки, готовим сюжеты. Бывает разное – от мероприятий до тяжких преступлений, и каждый раз работа увлекает и захватывает.

Убайдулло Кучкоров свободное время посвящает самосовершенствованию – читает книги, играет на музыкальных инструментах, но самое любимое занятие – устраивать пешие прогулки с детьми. Кстати, их у него четверо. Младшая дочь, Мухлиса, хочет пойти по стопам отца и служить в туристической полиции.

**Замира БАЛТАЕВА,
корреспондент «На посту».
Самаркандская область.**



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



Yoshlar – kelajak buniyodkori



USTOZ O'GITI – MAYOQ

Jinoyatlarni fosh etishda ichki ishlar organlari ekspert-kriminalist xodimlarining xizmati beqiyos. Voqealoyini sinchkovlik bilan ko'zdan kechirish, ashyoviy dalillarni topish soha xodimlaridan o'ta ziyraklikni talab etadi. Shu bois ekspertlar ishini igna bilan quduq qazishga qiyoslashadi.

Toshkent viloyat IIBB Birinchi mintaqaviy hududi Yuqorichirchiq tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhida o'z ishining ustalari hisoblangan fidoyi mutaxassislar xizmat qiladi.

Tuman IIB EKG xodimlari xizmat faoliyatida foydalanish uchun xorijda ishlab chiqarilgan zamonaiviy texnik vositalar bilan ta'minlangan. Bu, o'z navbatida, jinoyatlarni «issiq izida» ochishda qo'l kelmoqda.

Ekspertlar tomonidan joriy yilning o'tgan davrida 162 ta hodisa joyi ko'zdan kechirilib, barcha holatlarda ashyoviy dalillar olingan. Shuningdek, ular tezkor-qidiruv va tergov harakatlarda 212 marta ishtirok etishdi.

Tuman IIB EKG eksperti, leytenant Usmonjon Nig'matov ekspertizaning beshta – daktiloskopiya, ballistika, xatshunoslik, trasologiya, sovuq qurollar ekspertizasi turlaridan xulosa berish ruxsatnomasiga ega.

– Qo'l-barmoq izlari orqali 5 ta, xatshunoslik ekspertizasi orqali 2 ta jinoyat o'z tasdig'ini topdi, – deydi leytenant Usmonjon Nig'matov. – Bundan tashqari, 45 ta ekspertiza xulosasi tergov organlariga taqdim etildi. Jinoyatlarni fosh etishda, sud, tergov organlarida adolat va qonuniylik prinsiplarini yuzaga chiqarishda yaqindan ko'mak berib kelyapmiz...

Usmonjon 1999-yilda Zangiota tumanida tug'ilgan. IIV Akademiyasini ekspert-kriminalistik faoliyati yo'nalishi bo'yicha tugatgan leytenant Usmonjon Nig'matov ustozi, katta ekspert, mayor Elmurod Mirzayevdan bilmaganlarini so'rab, bilim va tajribalarini boyitib bormoqda.

Sherzod ABDUSAMADOV,
«Postda» muxbiri.
Toshkent viloyati.

Surtda: tuman IIB EKG eksperti, leytenant Usmonjon Nig'matov pnevmatik qurolni ekspertizadan o'tkazmoqda.

Ikrom HASANOV olgan surat.



Profilaktika xizmati

MEHNAT VA FIDOYILIK MEVASI

Joriy yilning 27-may kuni Chiroqchi tumani «Kishmishtepa» mahallasida yashovchi muqaddam sudlangan R.A.ning bejo xatti-harakati profilaktika inspektori, katta leytenant Hakim Amirovda shubha uyg'otdi. Hamkasblari, mayor O'Imas To'rabyoyev, katta leytenant Zafar Samandarov bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirda R.A. ikki tup «kannabis» giyohvandlik o'simligini parvarishlab kelayotgani aniqlandi.

Hujjatlashtirib olingen giyohvandlik o'simligi yuzasidan to'planigan hujjatlar Chiroqchi tumani IIB huzuridagi tergov bo'limiga yuborilib, holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

3900 nafarga yaqin fuqaro istiqomat qilib kelayotgan Chiroqchi tumanidagi «Yangiobod» mahalla fuqarolar yig'iniga xizmat ko'rsatuvchi 53/17-sonli huquqiy targ'ibot maskani profilaktika inspektori katta leytenant Hakim Amirov ayni paytda hududda jinoyatlar va huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlab, ro'y bergenlarini fosh etish borasida bir qator ijobjiy natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Aksariyat holatlarda huquqbuzarliklar va qonunbuzarliklar avvalo bekor yurgan shaxslar tomonidan

ishini tugatmasa tinmaydi, – deydi «Yangiobod» MFY raisi Izatulla Sultonov. – Huquqbuzarlarga nisbatan tegishli tartibda chora ko'rlishini ta'minlash bilan birga, mahalladagi kam ta'minlangan oilalarga huquqiy va ijtimoiy yordam ko'rsatilishida ham bosh-qosh.

Mahallaning buguni va ertasi shu maskanda yashayotgan fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati qay darajada shakllanganiga ham bog'liq. Buni yaxshi anglagan profilaktika inspektori mahallada tez-tez «Huquqingizni bilasizmi?», «Firibgarlardan ogoh bo'ling!» kabi mavzularda targ'ibot tadbirlari uyushtirib kelmoqda. Bunda hududagi 4-sonli kasb-hunar maktabi va muktabgacha ta'lim tashkiloti ham e'tibordan chetda qolmayotir.



sodir etiladi. Buni yaxshi bilgan profilaktika inspektori sektor ishchi guruhni va mahalla beshligi bilan hamkorlikda fuqarolar bandligini ta'minlashda faoliylik ko'rsatib kelmoqda. Xususan, «Ayollar daftari»ga ro'y-xatga olingen 6 nafar xotin-qizning 2 nafariga subsidiya asosida tikuv mashinalari, «Yoshlar daftari»dagil 9 nafar yoshning 3 nafariga kredit va subsidiya asosida ish qurollari olib berilib, bandligi ta'minlandi.

Bundan tashqari, maqsadsiz yurgan 3 nafar shaxsni reabilitatsiya markaziga, 4 nafar bolani Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtiridi. Hisobda turuvchi 5 nafar shaxs bilan huquqbuzarliklar va jinoyat sodir etmaslik yuzasidan profilaktik suhbatlar o'tkazib kelmoqda.

– Katta leytenant Hakim Amirov mas'uliyatli, mehnatsevar, talabchan va xizmat vazifasiga sidqidildan yondashadigan xodim. Boshlagan

– Ichki ishlar organlarida faoliyat ko'rsatayotganiga hali ko'p vaqt bo'Imagan bo'lsa-da, zimmasiga yuklangan vazifalarni bekamu ko'st bajarish barobarida, tashabbuskorligi va talabchanligi bilan hamkasblari e'tiborini qozongan, – deydi uning ustozi, profilaktika katta inspektori mayor O'Imas To'rabyoyev. – U hamkasblariga har jihatdan o'rnak bo'lib, yoshlarga, shogirdlari profilaktika inspektorlari katta serjantlar G'ayrat Abdurahmonov va Bahriiddin Abrayevlarga kasb sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Inson qaysi soha vakili bo'lishidan qat'i nazar, kasbini sevsan, uni ardoqlasa, sohaga oid bilim va tajribasini oshirsa, albatta, ijobjiy natijalarni qo'lga kiritadi. Buni profilaktika inspektori, katta leytenant Hakim Amirov faoliyati misolida ko'rish mumkin.

Sodiq RAHIMOV,
«Postda» muxbiri.
Qashqadaryo viloyati.

QO‘SHSAHIFADA –

ENG MUHIMI – HAMJIHATLIK

Sergeli tumani IIOFMB
3-sonli IIB Navbatchilik qismi xodimlari ro'y bergan voqeа-hodisalar, huquqbu-zarliklar va jinoyatchilik yuzasidan kelib tushayotgan xabarlarni qabul qilib olisharkan, har bir murojaat diqqat markazida.

Tuman IIOFMB hamda IIB Navbatchilik qismi faoliyati takomillashtirilib, har biriga katta monitorlar o'rnatildi. Tezkor navbatchi bu orqali tumanda xizmat olib borayotgan xodimlarning qayerda ekanliklari, voqeа sodir bo'lgan hududga qaysi avtoekipaj yaqin ekanligini kuzatib borishlari mumkin bo'ldi. Bu o'zgarish fuqarolar tomonidan jinoyat va hodisalar haqidagi bergan xabarlari yuzasidan voqeа joyi-

ga xodimlarni zudlik bilan yuborishni osonlashtirdi hamda jinoyatlarni «issiq izida» ochishga yordam bermoqda.

Har bir murojaat ortida inson taqdiri yotishini yaxshi anglagan Navbatchilik qismi tezkor navbatchisi, mayor Quvonch Tashenov ham o'z vazifasiga sidqidildan yondashgan holda, har bir xabarni qayd etish, xizmatga oid xabar va ma'lumotlarni ro'yxatga olib, ijroga qaratilishida o'z hissasini qo'shamoqda.

3-sonli IIB hududida 12 ta mahalla mavjud bo'lib, ulardan biri «Yangi Bunyodobod»dir. Nomidan ham ko'rinish turibdiki, hudud asosan, yangi qad ko'targan zamonaqni ko'p qavatlari turarjoy binolaridan iborat. Aholisi 6000 nafardan oshiq. Mahalla fuqarolar yig'ini ham 3-sonli IIB binosi bilan bir joyda joylashgan.



Hududdagi 530-sonli Ichki ishlar organlari tayanch punktida faoliyat olib borayotgan profilaktika katta inspektori, mayor Sherzod Abdurashidov mahalla fuqarolar yig'ini raisi Mirzodil Mansurov, hokim yordamchisi Abdulatif Abduqodirov va xotin-qizlar faoli Adiba Burxonova bilan hammaslaklikda xizmat olib bormoqda.

U mahalla faollari bilan xonadonna-xonodon yurib, fuqarolarning muammolarini o'rganadi. Ajrim yoqasiga kelib qolgan oila a'zolari bilan profilaktik suhbatlar o'tkazib, ularni yarashtirish ishlarida faol ishtirot etadi.

Mayor Sherzod Abdurashidov mahalladagi voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtaida huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga chek qo'yishda muntazam targ'ibot-tash-

viqot ishlarini olib boradi. Ayniqsa, yozgi ta'til kunlarida kelajagimiz egalari bo'lmish bolajonlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish yuzasidan ham ijobji ishlar qilinmoqda. Jumladan, yaqinda faoliyatini boshlagan xorijiy tillarni o'rgatish markazi va unda tashkil etilgan bolalar kutubxonasi bolalarni jaib qilishda markaz xodimlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatgan. Shuningdek, mahalla hududida yopiq suzish havzasasi ham barpo etilgan bo'lib, unda bolajonlar sportning suzish turi bilan muntazam shug'ullanishi natijasida sog'lom va baqvват bo'lib voyaga yetishi ta'minlanmoqda. Bugun ham mayor Sh. Abdurashidov suzish havzasida bo'lib, bolajonlar hamda ularning murabbiysi bilan dildan suhbatlashdi.

QUYOSHNING ISSIQ TIG'IDA

Toshkent shahar IIBB
Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi YPX brigadasi 2-batalyon shaxsiy tarkibi poytaxtning Yakkasaroy, Mirobod, Sergeli va Yangiha-yot tumanlariga xizmat ko'rsatadi. Soha vakillari tomonidan joriy yilning 5 oyi davomida jami 19 mingga yaqin qoidabuzarlik aniqlandi.

Osoyishtalik posbonlari yo'llardagi qoidabuzarliklarga qonuniy chora ko'rish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolar xavfsizligini hamda yo'llardagi infratuzilmalarning beshikast saqlanishini ta'minlash, ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Shuningdek, xizmat hududlarida, chorrahaldarda tirbandliklarning oldini olish, harakat xavfsizligini ta'minlash, shahrimizga kelayotgan delegatsiyalarni kutib olish va kuzatishda o'z hissalarini qo'shishmoqda.

Batalyonning 5-safarbarlik guruhu inspektori, kichik serjant Ahmadjon Mamatov Yakkasaroy tumanining eng katta chorrahalaridan biri – Bobur va Nukus ko'chasi kesishmasidagi chorrahada xizmat olib bormoqda. Kunduzgi soat 11:00 larda kun qizigandan qizidi. Biroq transport vositalari qatnovi ortsa

ortyaptiki, kamaygani yo'q. Ahyon-ahyonda svetofor ishlamay qoladi. Shunda inspektor chorrahaning o'rtafiga chiqib, transport vositalari harakatini tartibga sola boshladi. Shuningdek, yo'lning qatnov qismini belgilanmagan joydan kesib o'tayotgan, belgilangan joyidan o'tsa-da, qo'lida telefon yoki shunga o'xshash



moslamalardan foydalangan holda harakatlanayotgan piyodalar bilan profilaktik suhbatlar olib boradi.

Shu asnoda bir fuqaro telefonda gaplashgan holda chorrahanini kesib o'ta boshladi. Osoyishtalik posboni fuqaroning yoniga borib, o'zini tanishtirdi. Shundan so'ng piyodaga yo'lning qatnov qismida, shuningdek, piyodalar o'tish joylarida harakatlanayotganda telefondan foydalanish, tele-video mahsulotlarni ko'rish, radio-audio mahsulotlarni eshitish, kitob yoki davriy matbuot o'qish hamda e'tiborni chalg'itadi-gan boshqa elektron vositalardan foydalanish taqiqlanganini tushuntirib, uni ogohlantirdi.

Shu on yana bir holatga guvoh bo'ldik. «Lacetti» rusumli avtoulov inspektor xizmat olib borayotgan joyga kelib to'xtadi. Haydovchi 35–40 yoshlardagi kishi ekan. Avtoulova da 10 yoshlardagi farzandi ham bor. Kunning issiqligidan u lohas bo'lib, tobi qochib yordam so'rab to'xtagan ekan. Inspektor tezda mashinaga o'trib, fuqaroni Respublika shoshi-

TOSHKENT SHAHAR IIBB

MAS'ULIYAT FIDOYILIKKA UNDAYDI

Shayxontohur tu-manida istiqomat qiluv-chi xotin-qizlar soni 179 ming nafarga yaqin. Ularning dard-u tash-vishini aritish va muam-molarini hal etishda tuman IIOFMB xotin-qiz-lar masalalari bo'yicha inspektorlarning alohida o'rni bor.

– Ma'lumki, notinch oilalarda ayollarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish maqsadida jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderlari berish yo'lga qo'yilgan, – deydi xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, podpolkovnik Saodat Azimova. – Joriy yil boshidan tazyiq hamda zo'ravonlikdan jabrlangan 132 nafr xotin-qizga himoya orderi berildi. Bunday eng nozik masalani to'g'ri va samarali tashkil etish osoyishtalik posbonlari zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Zero, ota-onha o'rta-sidagi urush-janjal farzandlarni ham oiladan bezdiradi. Shu bois, bolalarning orzu-umidlari, ta'lum-tarbiyasida ham oilaviy janjallarning oldini olish muhim o'rinn tutadi.

Yana bir muhim masala shuki, xodimlar hududda muntazam ravishda targ'ibot-tashviqot tad-birlari, davra suhbatlarini tash-

killashtirib borishadi. Mazkur tadbirlarda ayolning jamiyatdagi mavqeyi, oiladagi o'rni, ona sifatidagi buyukligi hayotiy misollar orqali ishtiroychilarga yetka-zilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar, mahalla faollari, profilaktika inspektorlari va nuroni otaxon-u onaxonlar bilan bamaslahat tumanda istiqomat qilib kelayotgan 299 ta oila ajralib ketishining oldini olishga muvaffaq bo'lishdi.

Xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlarning xonodonma-xonadon yurib, ularning dardiga qulog tutilayotgani, yuzma-yuz muloqlar vaqtida hech kimga aytolmagan dardlari bilan o'rtoqlashayotgani, muammolariga yechim topayotgani ko'ngillarga iliqlik baxsh etadi. Ana shunday profilaktik suhbatlar natijasida xotin-qizlar bilan bog'liq 188 ta muammo mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etildi. Bu jarayonda xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektorlar shunchaki



ko'ngil so'rash bilan cheklanmay, ularning dardini tinglab, yechimini kutayotgan muammolarini o'rganib, jamoat tashkilotlari hamkorligida hal etilishiga yaqindan ko'mak berib kelyapti.

Kezi kelganda, oilalar tinchligini ta'minlash, xotin-qizlar o'rta-sida jinoyat va huquqburzaliklarning oldini olish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda jonbozlik ko'rsatib kelayotgan xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektorlar – podpolkovniklar Gulnora Ishonxonova, Malika

Yusufxo'jayeva, kapitan Nigora Po'latova, leytenantlar Xushro'y Akbarova, Mohira Yo'idosheva va Shahriza Damirovalar nomini alohida keltirish lozim.

Jamiyatda ayol baxtli ekan, oila atalmish qo'rg'on mustah-kam bo'ladi, farzandlar sog'lom va barkamol voyaga yetadi. Zero, bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham, avvalo, oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki bo'lgan ayollarga bog'liq.

linch tibbiy yordam ilmiy markaziga olib bordi. Shifokorlar unga tibbiy yordam ko'rsatishdi. Hozirda uning ahvoli yaxshi, u xodimimizdan minnatdor.

Poytaxtning eng murakkab chorrahalaridan biri bo'lgan Avliyota-Kichik halqa yo'li kesishmasidan Nukus ko'chasi va «Toshkent» vokzaliga hamda Mirobod dehqon bozoriga borish imkonini beruvchi yo'llar o'tgan. Soat 12:00 dan oshgan. Kun yana-da zabtiga olgan mahal.

– Ushbu chorraha juda murakkab bo'lib, bu yerda bir necha ko'chalar kesishadi va ko'plab transport vositalari harakatlanadi, – deydi 2-batalyon komandirining tarbiyiy ishlari bo'yicha o'rnbosari, mayor Nuriddin Haydarov. – Ayrim yangi yoki shahrimizga birinchi mar-ta tashrif buyurayotgan haydovchilar biroz shoshib qolishlari ham hech gap emas.

Mazkur chorrahaga batalyonning bir nechta xodimlari biriktirilgan bo'lib, ular kecha-yu kunduz harakat xavfsizligini ta'minlashmoqda. Bugun ham 2-batalyon 3-safarbarlik guruhi komandiri, mayor Dilshod Ibragimov, 3-safarbarlik guruhi



xodimlari – kichik serjant Davron Shermatov va safdor Ilhom Mirzayev hamda 4-safarbarlik guruhi inspektori, safdor Abbas Usmonovlar bu yerda faoliyat olib borishmoqda. Xususan, ayni issiq kunlarda yanada sergaklik va hushyorlik bilan xizmat olib borayotgan xodimlar kutilma-gan vaziyatlarda ham o'z vazifalarini a'lo darajada bajarishga harakat qilishmoqda.

Jumladan, kunning o'ta is-siqligidan yuzaga kelayotgan holatlarda ham YPX inspektorlari chorrahada harakat xavfsizligini ta'minlashayotganiga guvoh bo'ldik. Yuk avtoulovi ayni shu chorrahadan tonnelga o'tish qismida buzilib, to'xtab qoldi. Bu esa boshqa trans-port vositalarining harakatlanishiga xalaqit berib, tirbandlik yuzaga kela boshladi. Albatta, kunning issiq

paytida haydovchilar betoqat bo'lib, signallarini chala boshlashdi. YPX inspektorlari tezda ushbu avtomashinaning chetroqqa olinishida yordam berib, vaziyatni yana iziga tushirishda jonbozlik ko'rsatishdi.

Batalyon xodimlari nafaqat ko'chalarda, balki YPX maskani, blok hamda to'siq postlarida ham xizmat olib borishadi. Xususan, «Yangi hayot» blok postida joriy yilning 5 oyi davomida jami 10 ta holatda 450,27 gramm giyohvandlik vositalari, 6 ta holatda 23 dona psixotrop moddalar aniqlangan.

Shu o'rinda aytilib o'tish joizki, yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashga nafaqat YPX inspektorlari, balki barcha birdekk mas'uliyat bilan yondashishi zarur. Ayniqsa, hozirgi jazirama issiq kunlarda har bir harakat ishtiroychisi, u haydovchimi yoki piyoda bo'lsin, harakat xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilishi va boshqalarni ham hurmat qilishi lozim. Shundagina o'zi va o'zgalar hayoti hamda sog'lig'ini asrashda yordam ko'rsatgan bo'lar edi.

Qoshsahifa materiallarini «Postda» muxbir Sarvar SOBIROV va fotomuxbir Abu KENJAYEV (suratlar) tayyorladi.

■ Бухарская область


«СЛУЖБА ЗДЕСЬ ИМЕЕТ СВОЮ СПЕЦИФИКУ»

Старший инспектор профилактики пункта правопорядка № 172 ОПП ОВД Ромитанского района майор Самихон Носиров имеет непререкаемый авторитет среди жителей вверенной ему территории – махалли Афросиаб.

Службу в органах внутренних дел С. Носиров начал с должности командира группы специального отряда батальона ППС УООП УВД Бухарской области. Через три года был переведен в УКД ОВД города Бухары, где до 2021 года работал инспектором, а затем старшим инспектором профилактики махаллей Шайхулолам, Отбозор, Мохихосса.

– Махалля Афросиаб, где я сейчас служу, расположена в центре района. Здесь функционируют дехканский рынок, больница, парк культуры и отдыха, стадион... – говорит майор С. Носиров. – Откровенно говоря, служба здесь имеет свою специфику.

К примеру, только дехканский рынок ежедневно



посещают тысячи людей, в том числе жители других районов. Люди разные, не у всех намерения благие. С начала года на рынке было зафиксировано два преступления – связанные с незаконным сбытом валютных ценностей и мошенничеством. В минув-

шем году за аналогичный период было совершено 11 преступлений, так что динамика идет на снижение.

Во всех профилактических мероприятиях участие принимают махаллинские активисты. Особое внимание уделяется укреплению атмосферы спокойствия и

добрососедства, повышению уровня жизни соотечественников. Во взаимодействии рассматриваются вопросы по оказанию практической помощи лицам, нуждающимся в социальной поддержке, организации содержательного досуга молодежи.

На сегодняшний день население территории ответственности старшего инспектора составляет свыше 2,5 тысячи человек. Жители махалли в основном занимаются торговлей. Майор С. Носиров проводит целенаправленную профилактическую работу с владельцами торговых точек, близится к завершению оборудование их объектов камерами видеонаблюдения с функцией распознавания лиц.

– Майор Самихон Носиров – преданный своему делу сотрудник, – говорит старший инспектор ОПП ОВД района капитан Фаррух Ахмедов. – Профессионализм и неутомимостью он подает пример сослуживцам, щедро делится знаниями и опытом с молодыми стражами порядка. Гордимся тем, что плечом к плечу несем с ним службу.

Мирзокул АХАДОВ,
корреспондент
«Postda».

■ Джизакская область

В ХОДЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ

В Джизакской области проведены специальные профилактические мероприятия, направленные на раннее предупреждение преступлений и правонарушений на основе принципа «Благоустроенная и безопасная махалля».

Предварительно были проанализированы причины и факторы, влияющие на совершение противоправных деяний в городах и районах области, с учетом криминогенной обстановки намечены необходимые меры по их устранению. К примеру, в городе Джизаке организованы профилактические беседы с членами семей, находящимися на грани развода, с конфликтующими между собой лицами. В Арнасайском районе, в населенных пунктах, прилегающих к Айдаро-Арнасай-

ской системе озер, прошли рейды, направленные на недопущение незаконных вылова рыбы и охоты на животных, проверено соблюдение гражданами правил хранения охотничьего оружия.

В ходе совместных профилактических мероприятий, организованных ОВД, Национальной гвардией, коммунальными службами, органами здравоохранения, махаллинскими активистами, гражданам даны рекомендации по ограждению себя от краж, мошенничества.



Подчеркивалась значимость оборудования жилых домов, торговых точек камерами видеонаблюдения.

В процессе подомовых обходов изучались проблемы, волнующие население, намечены пути их решения во взаимодействии с ответственными организациями. Особое внимание уделялось лицам, состоящим на учете органов внутренних дел, ранее судимым, находящимся под надзором службы пробации.

В результате мероприятий выявлен ряд нарушений. Так, установлено, что З. Х., житель Пайарыкского района Самаркандской области, осуществлял охоту на территории охранной зоны. В рамках спе-

циальных профилактических мероприятий раскрыто 7 преступлений, выявлено 1 121 административное правонарушение. Охранные ордера выданы 35 жертвам притеснения и насилия. Урегулирован 31 семейный конфликт, приняты меры по сохранению 7 семей, находившихся на грани развода. 25 человек помещены в наркологический диспансер. В ходе рейдов, проведенных на дорогах области, осмотрено свыше 15 тысяч автотранспортных средств. Кроме того, в городах и районах организовано ночное патрулирование по 181 маршруту.

Фарход ДАВРОНОВ,
майор.





Фахрийлар — фахримиз

«ХОРМА, ДЕГАН ҲОЛГА ҚУВВАТ...»

Инсон қадрини улуғлаш, айниқса, кекса авлод вакилларини эъзозлаш халқимизга хос азалий қадриятлардан. Уларнинг дуо ва маслаҳатларини олиш, бой ҳаётий тажрибаларидан фойдаланиш кейинги авлод учун ҳам манфаатли ҳисобла-нади.

Бугунги кунда Қорақалпогистон Республикаси ИИВнинг Фахрийлар кенгаси 250 дан ортиқ фахрийни ўз атрофида жамлаган. Таъкидлаш жоизки, кенгаш жамоаси авлодлар ўртасидаги алоқаларни янада мустаҳкамлашга хизмат қилиб келмоқда.

Ички ишлар органлари фахрийси ҳақида мақола тайёрлаш учун ИИВ Фахрийлар кенгаси раиси, истеъфодаги подполковник Фарҳад Саникбаевга мурожаат қилганимизда, у киши соҳа фахрийси Пердегул Отегенова тўғрисида ёзишимизни маслаҳат берди.

— Пердегул Отегенова кўп йиллар ички ишлар вазирлигининг турли лавозимларида самарали фаолият олиб борган. Аммо 2007 йилда хизмат вазифасини бажариш чоғида йўл-транспорт ҳодисасига учраб, пенсияга чиқкан. Ҳозир бетоблиги боис уйида. Бирга бориб ҳолидан хабар олсанк, бир томондан, беморнинг кўнглини олган бўламиз, иккинчидан, савоб ҳам бўлади, — деди у.

Оқсоқол ҳамроҳлигидаги П.Отегенованинг хонадонига йўл олдик. Ҳол-аҳвол сўраб, кайфияти ва соғлиги билан қизиқдик.

— Соғлиғим яхши. Фахрийлар кенгаси аъзолари, вазир маслаҳатчиси Оринбай Турдақов ва вазирлик ходимлари байрамларда хабар олиб, кўнгил сўраб туришади.

Бундан ташқари, собиқ ҳам-касларим Абдан Даулетмуратова, Айсара Сейтмуратовалар ҳам тез-тез келиб туришади. Бирга ишлаган ҳамкасларинг билан

сида уч йил нотариус ёрдамчиси сифатида ишлади. Айнан шу идора ёнида Қорақалпогистон Республикаси ИИВнинг Вояга етмаганлар ишлари бўйича бўлими биноси жойлашган эди. У ерда хизмат қилаётган хотин-қизларнинг ҳарбий либосда юришини кўриб, унда ички ишлар идорасида ишлашга ҳавас пайдо бўлди.

1991 йили ИИВга тегишли ҳуж-

ри Санийпа Жанизакова, вазирлик матбуот гуруҳи раҳбари Жуманияз Отениязовлардан хизмат сирларини ўрганиб, тажриба тўплади.

1999–2001 йиллар оралиғида Ички ишлар вазирлигининг Вояга етмаганларга ижтимоий ва ҳуқуқий ёрдам бериш марказида тарбиячи бўлиб фаолият юритди. 2001 йилда эса капитан унвонида пенсияга чиқди.

П. Отегенова умр йўлдоши Мақсет Хожамуратов билан бир ўғил ва бир қызни тарбиялаб, вояга етказди. Ҳозирда бири тижорат, иккинчиси тибиёт соҳасида ишлаётган бўлса, опасига ҳавас қилган укаси Қанияз Отегенов бир неча йиллар давомида ички ишлар тизимида хизмат қилиб, майор унвонида пенсияга чиқсан.

— Ҳозирда уч нафар набирамиз бор. Уларнинг тарбияси билан имкон даражасида шуғулланишга ҳаракат қиласман. Яхши хулқ-атворли ва тўғрисўзли бўлиш, таълимга интилиш, спорт билан шуғулланиш зарурлигини таъкидлайман. Яқинда катта набирам Арислан кикбокс бўйича мусобақада иштирок этиб, совринли ўринлардан бирини эгаллади. Улар эришаётган ютуклар бераётган тарбиямизнинг бесамар кетмаганлигини билдиради, — дейди Пердегул опа.

П.Отегенова Фарҳад оға билан эски фотоальбомни томоша қилиб, хотиралар билан ўртоқлашаркан, бу жараённи фотосуратга мухлашни маъқул топдик.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,
«На посту» мухбири.
Қорақалпогистон Республикаси.**



дилдан сухбатлашиш кўнглингни тоғдек кўтаради. Ахир «хорма деган ҳолга қувват, бор бўл, деган баридан зиёд» деган нақл бежиз айтилмаган.

1962 йили Нукус шаҳрида туғилган П.Отегенова ўрта мактабни тугаллагач, Тошкент юридик техникумiga ўқишига кириб, уни 1989 йили тамомлади. Сўнг Нукусдаги 1-сонли нотариал идора-

жатларини топширган П.Отегеновага хизматга қабул қилинишида юридик соҳада таълим олгани, шу йўналишда ишлаётгани асқатди.

Соҳадаги илк фаолиятини Вояга етмаганлар ишлари бўйича инспектор лавозимида бошлади. 1992 йилдан эса вазирликнинг кадрлар бўлимига ўтказилди. Бу ерда бўлим бошлиғи Абдикерим Бердикеев, бўлим катта инспекто-



«Ёшлар ойлиги» давом этмоқда

ОРОМГОХДА УЧ АВЛОД УЧРАШДИ



«Ёшлар ойлиги» муносабати билан Андикон вилояти Избоскан туманида жойлашган «Бургут» болалар оромгоҳида Андикон вилояти ИИБ Фахрийлар кенгашининг раиси, вилоят ИИБ бошлиғи ўринбосарининг маслаҳатчиси, истеъфодаги подполковник Давронбек Юсупов, 7255-ҳарбий қисм тарғибот гуруҳи, бир гуруҳ фахрийлар, туман ИИБ ходимлари ишти-

роқида уч авлод учрашви ташкил этилди. Тадбирда фахрийлар хизмат қилган даврларини ёдга олиши, ўша пайтда бўлиб ўтган воқеа-а-ходисаларни айтиб беришди. Болажонлар эса шеър ва қўшиқлари, саҳналаштирилган чиқишилари билан тадбирга хуш кайфият бағишилашди.

**Фозилбек МИРАБДУЛЛАЕВ,
капитан.**
Андижон вилояти.

ПСИХОЛОГИК ТРЕНИНГ

«Янги Ўзбекистон ёшлари, бирлашайлик!» шиори остида ўтказилаётган «Ёшлар ойлиги» доирасидаги тадбирлар ИИВ Малака ошириш институтида ҳам юқори савида бўлиб ўтмоқда.

Яқинда мазкур таълим муассасаси тингловчиликарининг руҳий-психологик ҳолатини ўрганиш, улар билан психологик тренинглар ўтказиш мақсадида ташкил этилган «Ички ишлар органлари ходимлари фаолиятида психолого-билимларнинг ўрни» мавзусидаги давра сұхбати фикримиз тасдиғидир.

Унда сўзга чиқкан психолого А. Абдуллаев мамлакатимиздаги ҳуқуқни



муҳофаза қилувчи органлар ва жамоат ташкилотлари ўзларига берилган имкониятлардан унумли фойдаланиб келаётганилиги, жиноятларнинг келиб чиқиш сабаблари ва унга шарт-шароит яратиб берарётган омилларни барта-раф этиш ҳамда вояга ет-

Ўз мухбирумиз.



СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИТА СОТРУДНИКОВ – В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ

Принцип социально-правовой защищенности служащих, в том числе сотрудников правоохранительных органов, – один из основных принципов государственной службы.

Правоохранительные органы играют важную роль в механизме современного государства. От эффективности их деятельности во многом зависят уровень законности и правопорядка в стране, безопасность граждан, степень защиты их прав и законных интересов. В свою очередь, эффективность деятельности правоохранительных органов находится в прямой зависимости от уровня социальной защиты их сотрудников.

Социальная защита сотрудников органов внутренних дел – система социально-юридических гарантий, направленных на удовлетворение материальных и духовных потребностей сотрудников. Социальная защита может быть рассмотрена в нескольких аспектах. В широком смысле – это совокупность разнообразных правовых средств, обеспечивающих достойную жизнь и свободное развитие человека.



Законодательством установлен определенный объем льгот и компенсаций, формирующих правовые основы для осуществления государственных гарантий защиты прав и интересов сотрудников ОВД, чья деятельность в значительной степени связана с риском для жизни и здоровья. Сотрудникам установлены льготы, гарантии и компенсации.

Социальная защита призвана обеспечить нормальные условия служебной деятельности сотрудников, а также компенсацию повышенных психологических и физических нагрузок, служебных ограничений и неблагоприятных последствий наступления случаев, влекущих необходимость социальной защиты. Социальная защита сотрудников осуществляется за счет специальных финансовых источников. О осуществление социальной защиты производится на основе соответ-

ствующих нормативно-правовых актов.

Социальная защита сотрудников органов внутренних дел обеспечивается путем: охраны здоровья; оплаты труда; обеспечения жилой площадью; возмещения ущерба, причиненного имуществу; льготного пользования транспортными средствами при исполнении служебных обязанностей; государственного пенсионного обеспечения; государ-

системы МВД в соответствии с действующим законодательством. Сотрудник и совместно проживающие с ним члены его семьи имеют право на санаторно-курортное лечение и оздоровительный отдых в учреждениях в сфере внутренних дел.

Особый статус сотрудника органов внутренних дел предполагает государственное страхование его жизни и здоровья со дня начала службы, призванное обеспечить компенсационные выплаты сотруднику и членам его семьи при наступлении соответствующего страхового случая.

В настоящее время социальная защита сотрудников ОВД обеспече-



чивается справедливой, беспристрастной, открытой системой, не допускающей излишних бюрократических препятствий. Значительно облегчило работу то, что система работает в режиме онлайн, автоматически управляет очередностью и удалена от человеческого фактора. Следует отметить, что запуск электронной программы «E-ijtimo-Uzmoja.iiv.uz» служит одним из важнейших факторов обеспечения прозрачности.

В системе органов внутренних дел установлено стимулирование труда сотрудников, добросовестно выполняющих возложенные служебные обязанности и имеющих положительные результаты работы, путем применения в отношении них мер поощрения.

Указ Президента страны от 29 ноября 2021 года «О мерах по утверждению и реализации Концепции общественной безопасности Республики Узбекистан», постановление главы государства от 8 февраля 2022 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы социальной защиты сотрудников органов внутренних дел» способствовали дальнейшему усилению социальной защиты и укреплению морально-психологического состояния сотрудников и членов их семей. В соответствии с приведенными документами в системе

ОВД ведется целенаправленная работа. Например, с начала текущего года в 15 дошкольных образовательных организаций системы МВД выделено порядка 200 путевок детям сотрудников. Осуществлены компенсационные выплаты около 9 000 сотрудникам, проживающим в арендованном жилье, порядка 150 – получили жилье, более чем 80 – выделены беспроцентные займы для улучшения жилищных условий и ремонта жилья. Около 150 сотрудникам оказана материальная помощь для восстановления здоровья, более 300 – для покрытия расходов на хирургические операции близким родственникам, обеспечение их ортопедической обувью и протезно-ортопедической продукцией, около 670 – выделены средства на проведение свадеб и ритуальных мероприятий.

Кроме того, свыше 700 сотрудников получили направления в санаторно-курортные учреждения, около 130 сотрудников, добившихся высоких результатов в службе, отмечены денежными премиями, а более 60 сотрудников получили автокредиты от ЦБ на 3 года по ставке рефинансирования. Детям сотрудников выделены 653 путевки для отдыха в детских оздоровительных лагерях системы МВД. Единовременные пособия выплачены свыше 50 членам семей сотрудников, получивших телесные повреждения или погибших при исполнении служебных обязанностей.

В целях всесторонней поддержки, проявления заботы, уважения и почтения к членам семей военнослужащих и сотрудников, погибших во имя защиты Родины и мирной жизни народа, и лицам, находившимся на их иждивении, а также дальнейшего укрепления в обществе атмосферы доброты, согласия и гуманизма 13 марта 2023 года издан Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по усилению социальной поддержки членов семей военнослужащих и сотрудников, погибших во имя защиты Родины и мирной жизни народа». В нем говорится о предоставлении льгот и гарантий членам семей военнослужащих и сотрудников ряда министерств и ведомств, в том числе МВД, погибших во имя защиты Родины и мирной жизни народа вследствие ранения, контузии или увечья, и лицам, находившимся на их иждивении.

Целенаправленные меры, принимаемые по усилению социальной защиты сотрудников органов внутренних дел, служат важнейшим фактором дальнейшего повышения эффективности их деятельности на основе принципа «Служить интересам народа».

**Сами ХОЛМИРЗАЕВ,
подполковник.**



Жазони ижро этиши мұассасаларида

ЯХШИЛИК СОФИНИБ...

— Ходима бўламан, деганимда, яқинларим форма кийиш қиз болага эмас, дея қаршилик қилишган, — дейди ИИВ ҳузуридаги Жазони ижро этиши департаменти биринчи минтақавий ҳудуд 21-сонли жазони ижро этиши колонияси маҳсус ҳисоб бўлими кичик инспектори, сержант Мұхабат Раҳимова. — Бу мени мақсадимдан воз кечиш ёки уни ўзгаришга эмас, балки янада қатъиятли бўлишимда куч бағишилаган. Меҳрим тушган касбни эгаллашим учун дадил ҳаракат қила бошлаганман.



Қаҳрамонимиз билан суҳбатлашар эканмиз, у истеъфодаги майор Неля Назарова, катта сержант Сония Патупаловадан соҳа сирасорларини қўнт билан ўргангани, баъзи ўринларда қаттиқўл ва талабчан устозларидан танбех эшитганини ҳам яширади. Шунингдек, унинг жонкуярлиги йигирма йилдан ортиқ хизмат фаолияти давомида касбдошлари орасида ўз ўрнини топишида пойдевор бўлганини мамнунлик билан тилга олди.

— Жазони ижро этиши мұассаса-

сига ҳар бир маҳкума йиғма жилди билан келади, — дейди сержант Мұхабат Раҳимова. — Уларга керакли қайдларни киритиш жараёнида бёвосита маҳкумалар билан юзма-юз суҳбатлашаман. Аввало, инсон жиноятчи бўлиб туғилмайди. Аммо турмушда бунга етакловчи омиллар жуда кўп. Афсуски, орамизда кўл ураётган иши нотўғри эканлигини била туриб, фикридан қайтмайдиганлар ҳам йўқ эмас. Шу нуқтаи назардан, жазони ижро этиши колониясини ҳақиқий маънода

тарбия мактаби, деган бўлардим. Чунки маҳкумалар мұассасамизда жазони ўташ даврида меҳнатга жалб этилиши, маънавий-маърифий тадбир ва профилактик сухбатлар натижасида қилмишидан керакли хулоса чиқаришади. Ҳаётда оқ ва қорани фарқлай бошлишади. Аслида ҳар биримизнинг инсоний бурчимиз бир-биримизга зарур вазиятда ёрдам қўлини чўзиш, кимdir ногаҳон қоқилиб кетса, уни суюш, тўғри йўл кўрсатишдир.

Ҳа, хизмат вазифаларини бекаму кўст бажаришга одатлаган қаҳрамонимиз, инсонийликни ҳам ниҳоятда қадрлайди. Шу боис бўлса керак, ҳамкаслари муҳим қарор қабул қилишда иккиланишса, «Мұхабат, маслаҳатингиз керак», дея унга дўстона илиқлик билан юзланишади. Одамлар орасидаги чин инсоний муносабатларда физикадаги тортишиш қонуни мавжуддек кўринади. Буни меҳнаткаш, кўнгли очиқ, самимий, бағрикенг инсонларга ўзларига ўхшаган одамлар талпинишида кўриш мумкин.

— Кўча-кўйда ички ишлар органлари ходимларини кўрсан, ҳавасим келарди, — дейди Мұхабат Раҳимованинг қайноаси Холида ая. — У вақтларда ходималар кам бўларди. Шу ҳавас туфайли доим юрагимнинг бир четида ходима қизни келин қилиш нияти бўлган. Кунларнинг бирида ораста либоси ўзига жуда ярашган дадил ходима қизни учратиб қолдим. Ишонасизми, шунаقا қувонганман. Кейин сўраб-сурештиридик, тақдир экан, ўғлим

Нодиржон билан чиройли оила қуришди. Бугун уларнинг бир-бираидан ширин Мунисахон, Асадбек, Мубинахон исмли фарзандлари бор. Келинимнинг оёқ-қўли чаққон, ўзи пазанда ва ниҳоятда дилбар, ширинсухан. Унинг касби қийинлигини биламан. Шунинг учун доим қўлимдан келганича ёрдамлашишга ҳаракат қиласман. Набирам Асадбекнинг онасининг касбига қизиқишини биламан. Келгусида унинг ички ишлар органлари ходими бўлишини жуда хоҳлайман.

Аёлнинг ўрни, энг аввало, ўз оиласи, яқинлари даврасидадир. Буни билган қаҳрамонимиз шундай бағри бутунликни маҳкумаларга ҳам тушунтиради. Уларни эшитади, ҳаёти изга тушиб кетиши учун ўз ўрнида ҳуқуқий ёрдам кўрсатиб, маҳкумалар ва жамият ўртасида восита-чилик қиласди. Шу билан бир қаторда, ишга чанқоқ сафдорлар Сардор Норқўзиев, Умрзоқ Юсупов сингари ўзига хос жиҳатларини ўргатади, сидқидилдан хизмат қилишга ундейди.

— Хизматимизнинг ўзига яраша машақатли томонлари бор, — дейди қаҳрамонимиз. — Жазони ижро этиши колонияси, деган сўз ҳам кўпчиликни сергак торттиради. Аммо мен ҳар гал жазо муддатини ўтаб бўлиб ёки авф этилиб, ўйига қайтаётган маҳкумаларни кўрганимда, ич-ичимдан қувонаман. Ҳаёт синовлардан иборат эканлигини, хато қилмаслик эса ҳар бир инсоннинг ўз қўлида эканлигини хис қиласман. Уларга яхшилик соғинаман.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
«Postda» мұхбери.



Сифатли таълим – тараққиёт пойдевори

ЛИЦЕЙДА ЎҚУВ-ТАЙЁРЛОВ МАРКАЗИ

Жамиятни улуф мақсадлар сари бошлишнинг ягона йўли ўзига ўқув-тайёрлов марказида таълим-тарбиянинг сифати, самарадорлиги билан боғлиқдир. ИИВ Бухоро академик лицейида ҳам битирувчи курс ўқувчиларини олий таълим мұассасаларига мақсадли тайёрлаш борасида бир қанча самарали ишлар амалга ошириб келинмоқда. Жумладан, олий таълим мұассасасига кириш имтиҳонларида зарурий бўлган асосий фанлар бўйича қўшимча машғулотлар мунтазам олиб борилмоқда. Бу машғулотлар ИИВнинг тегишли бўйруғи асосида ўтказилмоқда. Мазкур ҳужжатга мувофиқ, нафақат академик лицей ўқувчиларига, балки бошқа таълим мұассасалари ўқувчиларига ҳам пуллик таълим хизматлари кўрсатилмоқда. Академик лицейда энг тажрибали ва маҳоратли педагог ходимларни жалб этган ҳолда ташкил этилган «Ўқув-тайёрлов маркази»да ҳар бир фан ва ўқитувчи учун алоҳида ўқув хоналари жиҳозланиб, ўқувчилар ихтиёрига топширилган.

Ўқув марказига ўқувчиларни жалб этиши мақсадида маҳаллий оммавий ахборот воситалари ва лицейнинг ижтимоий тармоқдаги саҳифаларида тарғибот ишлари олиб борилди. Ўқув-тайёрлов марказ фаолиятини доимий мониторинг қилиб бориш мақсадида

ўқувчилар билимини турли шакл ва усусларда баҳолаб бориш йўлга қўйилди. Масалан, ҳар ой билим ва малакаларни баҳолаш маркази билан ҳамкорликда диагностик ва апробацион тестлар ўтказиб келингани. Бундан ташқари, таълим сифати самарадорлигини

ошириш мақсадида ИИВ Академиясида ўқиш истагини билдирган ўқувчилар учун мутахассислик фанларидан оғзаки сухбатлар ташкил этилади.

Инглиз тилини чуқурлаштириб ўқитиш ва ўқувчиларнинг миллӣ ва халқаро сертификатларни



олишлари учун маҳсус инглиз тили гуруҳлари ташкил этилган. Шунингдек, мунтазам равишида «Фан ойлиги» ўтказиб келинмоқда. Ҳар бир фан ойлиги жараёнида очиқ дарслар, давра сухбатлари, «Заковат» ўйинлари, викторина, эксперсиялар ташкил

етилмоқда. Амалга оширилайтган ушбу самарали ишлар таълим сифатини оширишга хизмат қиласди. Зеро, сифатли таълим – тараққиёт пойдеворидир.

Шаҳноза ШАРИПОВА,
ИИВ Бухоро академик лицейи ўқитувчиси.



XODIMLARNING IJTIMOIY HIMOYASI – DOIMIY E'TIBORDA

Hozirgi kunda ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi adolatlari va xolisona, ochiq va korrupsiyadan xoli bo'lishiga, byurokratik to'siqlarning oldini olishga xizmat qiluvchi onlayn rejimda ishlaydigan «e-ijtimoiy-himoya.iiv.uz» elektron dasturi ishga tushirilganligi shaffoflikni ta'minlovchi eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

Ma'lumki, 2017-yil 29-noyabrdagi «Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishslash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qaroriga binoan, xodimlarning xizmat o'tash tartibi, intizomiy holati va pul ta'minoti masalalari, shuningdek, ijtimoiy himoyasi, pensiya ta'minoti va sog'lig'ini himoyalash bo'yicha tibbiy xizmatlardan foydalanish tartibi belgilangan edi. Yurtboshimizning 2019-yil 26-fevraldagi «Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarni ijtimoiy himoya qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risi-

siyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, Ichki ishlar vazirligi Maxsus budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'larining 10 foizi har yili xizmatda samarali natijalarga erishgan xodimlarning ijtimoiy himoya qilish uchun ajratilishi ko'rsatilib, mablag'larni maqsadli yo'naltirishni ta'minlash vazifasi Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti zimmasiga yuklatilgan. Unga ko'ra, betob xodimlar davolanishi uchun pul ta'minotining 5 baravargacha, ularning yaqin qarindoshlari, ya'ni, ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlarini operatsiya qildirish, ortopedik oyoq kiyim va protez-ortopedik mahsulotlar bilan ta'minlash xarajatlarini qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravargacha bir martalik moddiy yordam berish, uy-joyga ega bo'lish yoki yashash sharoitini yaxshilashga 5 yildan oshmaydigan muddatga bazaviy hisoblash miqdorining 1000 baravaridan oshmaydigan hajmda foizsiz qarz berish, sanatori-kurort

ortiq xizmat qilib, samarali natijalarga erishib kelayotgan va uy-joy bilan ta'minlanmagan xodimga ipoteka kreditlari asosida uy-joy sotib olish uchun dastlabki badal pullari to'lab beriladi. Shuningdek, xodim terrorizm, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo'lib, mehnat qobiliyatini yo'qotgan bo'lsa, ipoteka kreditining to'lanmay qolgan qismi va hisoblangan foizlari IIV hisobidan to'liq qoplanadi.

hududlarga shaharlara havo va temiryo'l transportida bepul borish va qaytish huquqi ta'minlanadi.

Raqamlar tili bilan aytganda, joriy yil boshidan hozirga qadar IIV tasarrufidagi 15 ta MTTga ichki ishlar organlari xodimlarining farzandlari uchun 200 ga yaqin yo'llanmalar ajratildi, ijarada yashab kelayotgan 9 mingga yaqin xodimga ijara pullari to'landi, 150 nafarga yaqin xodimga esa, tayyor holda uy-joylar topshirildi. Shuningdek, yashash sharoitini yaxshilash va uy-joyini ta'mirlash uchun 80 nafardan ortiq xodimga foizsiz qarz mablag'lari ajratildi, sog'lig'ini tiklash uchun 150 nafarga yaqin



da»gi hamda 2022-yil 8-fevraldagi «Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari esa soha xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, ayniqsa, ularni uy-joy bilan ta'minlash borasida mutlaqo yangicha imkoniyat va imtiyozlarni yuzaga keltirdi.

Aytish joizki, shu vaqtga qadar xodimlarning ijtimoiy himoyasi bo'yicha tizimda ko'plab kamchiliklar mavjud edi. Bu, o'z navbatida, xodimlarning umumiylary kayfiyatiga, ichki ishlar organlari jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan edi. Ammo endilikda mazkur yo'nalishda ko'plab imkoniyatlar yaratildi. Ya'ni, Davlatimiz rahbarining 2021-yil 29-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsep-

muassasalarida davolanish va dam olishga pul ta'minotining 2 baravari miqdorigacha moddiy yordam berish, to'y va dafn marosimlarini o'tkazish uchun pul ta'minotining 2 baravargacha bo'lgan miqdorda bir martalik moddiy yordam berish hamda osoyishtalik posbonlariga pul mukofoti va qimmatbaho sovg'alalar berish yo'iga qo'yildi.

Endilikda 20 yil va undan ko'p xizmat qilgan xodimlarga sog'lig'ini tiklash uchun moddiy yordam, xizmatdan bo'shatilgandan so'ng esa, 36 oy davomida sobiq xodimning ichki ishlar organlaridagi xizmat vazifalarini bajarganligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda, bir martalik pul kompensatsiyasi, har yili ichki ishlar organlarida besh yildan

Bundan tashqari, amaliy xizmat stagi 10 yildan ortiq bo'lgan xodimlarga yengil avtomobil sotib olish uchun 3 yil muddatga qarz berish, xodimlarning farzandlariga davlat granti asosida oliy ta'lim muassasalariga umumiylay belgilangan qabul ko'rsatkichlari kvotasidan tashqari, oliy ta'lim muassasalarini bakalavriatiga (ikkinchita'limdan tashqari) kirish uchun kvota ajratish, xodimning ota-onasi ham tizimdagi davolash-profilaktika muassasalarini tibbiy xizmatidan foydalanishi hamda xizmat uylarini 20 va undan ko'p kalendar yili xizmat qilgan, uy-joy bilan ta'minlanmagan yuqori malakali xodimlarga bepul shaxsiy mulk etib berish joriy etildi.

Shu bilan birga, to'lov-shartnomasi asosida oliy ta'lim muassasalarini bakalavriatiga o'qishga mazkur qaror qabul qilingunga qadar kirgan, shuningdek, o'qish davomida ushbu holatlarda ota-onasini yo'qotganlariga, agar uning ota-onasini terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan bo'lsa, shartnomaning to'liq hajmini, nogiron bo'lib qolgan bo'lsa, shartnomaning ellik foizi miqdorida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan to'lanadi.

Ushbu harakatlarda halok bo'lgan xodimlarning oila a'zolari, shuningdek, jarohati tufayli nogiron bo'lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining vazirlikka qarashli tibbiy muassasalar xizmatidan bepul foydalanish, sanatori-kurortlar joylashgan

betob xodimlarga moddiy yordam ko'rsatildi, 300 nafardan ortiq xodimning yaqin qarindoshlariga operatsiya qildirish, ortopedik oyoq kiyim va protez-ortopedik mahsulotlar bilan ta'minlash xarajatlarini qoplash uchun moddiy yordam berildi hamda to'y va dafn marosimlarini o'tkazish uchun 670 nafarga yaqin xodimga moddiy yordam ajratildi.

Bundan tashqari, sanatori-kurort muassasasida davolanish uchun 700 nafardan ortiq xodimga yo'llanmalar berildi, xizmatda yuqori natijalarga erishgan 130 nafarga yaqin xodimga pul mukofoti ajratilib, avtokredit olish uchun 60 nafardan ortiq xodimga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasida 3 yil muddatga qarz berildi. IIV tasarrufidagi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlariga dam olishlari uchun xodimlarning farzandlariga 653 ta yo'llanma ajratildi. Shuningdek, xizmat vazifalarini bajarish chog'ida tan jarohati olgan yoki halok bo'lgan xodimlar oila a'zolarining 50 nafardan ortig'iga bir martalik nafaqa pullari to'lab berildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ichki ishlar organlari xodimlari ko'rsatilayotgan keng ko'lamlari rag'bat va imtiyozlar ularning yurttimiz tinchlik-osoyishtaligi yo'lidagi sa'y-harakatlarida muhim poydevor bo'lib xizmat qilishi shak-shubhaisidir.

**Odiljon YAKUBOV,
podpolkovnik.
Mixli SAFAROV,
«Postda» muxbiri.**

ЧТОБЫ НЕ БЫЛО БЕДЫ

Лето у нас жаркое. В это время года всех тянет к речке, каналу, водоему, озеру. Что может быть лучше, чем окунуться в прохладную воду? Однако, как говорится, у каждой медали есть и обратная сторона.

– За истекший период нынешнего года в Каракалпакстане утонули 8 человек. Это произошло в результате того, что люди купались в неподходящих местах (в том числе в состоянии алкогольного опьянения) либо из-за того, что несовершеннолетние находились

без присмотра взрослых, – говорит представитель Управления по чрезвычайным ситуациям Республики Каракалпакстан капитан Айбек Абдирахманов.

Сотрудники Управления профилактики правонарушений МВД Республики Каракалпакстан и его под-



разделений на местах во взаимодействии с коллегами из УЧС, специалистами органов здравоохранения, образования, махаллинскими активистами ведут среди населения, особенно молодежи и несовершеннолетних, разъяснительную работу. На сегодняшний день в целях предупреждения несчастных случаев, связанных с купанием в открытых водоемах, проведено свыше 440 профилактических мероприятий.

– В них приняли участие более 4,5 тысячи граждан. В ходе мероприятий приводятся факты несчастных случаев, разъясняется недопустимость купания в неподходящих местах. Участникам раздаются специально подготовленные буклеты, – говорит начальник УПП СОБ МВД Каракалпакстана подполковник Рустам Ешимбетов. – К разъяснительной работе привлекаем средства массовой информации. Также сотрудниками

регулярно осуществляются рейды. С начала летнего сезона свыше 1400 человек уже получили официальные предупреждения.

Каждый должен знать и соблюдать установленные правила. Находясь у канала, реки и водоема, необходимо быть предельно осторожным, чтобы не было беды.

Азamat ПИРНИЯЗОВ,
корреспондент
«На посту».

Республика
Каракалпакстан.




На житейских перекрестках

По сообщению, поступившему в один из дней начала июня из приемного покоя Республиканского центра скорой помощи, расположенного в Чиланзарском районе столицы, к ним был доставлен пациент с различными телесными повреждениями. По словам его жены, она нашла супруга в бессознательном состоянии на улице, после того как расстались всего на несколько минут. При визуальном осмотре дежурный врач зафиксировал незначительные телесные повреждения. К спутанному сознанию добавлялось алкогольное опьянение, которое мешало правильно оценить состояние пациента и поставить диагноз.

После того, как мужчине была оказана первая медицинская помощь и его состояние стабилизировалось, он был переведен в палату. И уже ранним утром следующего дня у его кровати сидел сотрудник, который брал у 40-летнего Олима (имена в повествовании изменены из этических соображений) показания по вчерашнему происшествию.

...Олим и его жена несколько лет проживали в столице, приехав из ближайшего областного центра. Он зарабатывал на стройке, супруга – в кафе помощником

ПИКНИК



повара. В то злополучное утро они возвращались на съемную квартиру от родственников. Им встретился знакомый – 35-летний Отабек. Поздоровавшись, Отабек пригласил Олима присоединиться к его компании, которая расположилась неподалеку в тени деревьев, около небольшого канала. Олим, несмотря на проявленное женой недовольство, направился туда, супруга последовала за ним. Когда они подошли к компании, Олим вытащил из кармана брюк деньги, отсчитав несколько купюр,

протянул их Отабеку, чтобы тот купил спиртное и закуску. Пока Отабек бегал за покупками, Олим познакомился с двумя его приятелями. Пикник продолжился.

Через минут сорок недовольная происходящим жена Олима решила прекратить «мероприятие». Между мужем и женой произошла словесная перепалка. Женщина, разозлившись, решила уйти. Один участник «мероприятия» ретировался, сказав, что ему надо домой. Олим решил последовать за женой, но новый знакомый, 29-летний

Умар, сказал, что Олим не может найти «управу на свою женщины». Олим выпил залпом еще стакан водки... Миг просветления в его пьяном сознании произошел лишь тогда, когда он почувствовал, что Умар опустошает содержимое кармана его брюк, при этом Отабек держал его за руки...

После ссоры с мужем женщина, пожалев о поспешном решении оставить супруга «непонятно с кем», вернулась назад. По дороге она встретила Отабека и Умара, поинтересовалась: «Где Олим?». Один из мужчин с ухмылкой ответил: «Мы его уложили спать».

У канала женщина нашла мужа, лежащего на земле... Из его кармана исчезли два сотовых телефона старой модификации.

По данному факту СО при УКД ОВД Сергелийского района возбуждено уголовное дело по ст. 166 («Грабеж») УК Республики Узбекистан. Данное уголовное дело после окончания предварительного следствия с обвинительным заключением было направлено в суд для принятия законного решения. Решением Сергелийского районного суда по уголовным делам 35-летний Отабек и 29-летний Умар признаны виновными в совершении преступления.

С деталями уголовного дела ознакомил следователь СО при УКД ОВД Сергелийского района города Ташкента старший лейтенант Д. НУСРАТИЛЛАЕВ.





ЗАМОНАВИЙ ЭЛЕКТРОМОБИЛЛАР ХОДИМЛАР ХИЗМАТИДА

Вилоят ИИБда соҳада амалга оширилаётган ислоҳотларнинг ҳаётга кенг татбиқ этилиши юзасидан навбатдаги йиғилиш бўлиб ўтди. Тадбирда Ички ишлар вазири ўринбосари, генерал-майор Бекмурод Абдуллаев иштирок этиб, юртимиз осойишталигини таъминлаш, жиноят ҳамда ҳукуқбузарликларнинг барвақт олдини олишда ички ишлар органлари ходимлари олдида турган энг муҳим вазифаларга тўхталиб ўтди.

Шунингдек, вазир ўринбосари бугунги кунда ички ишлар органларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, ходимларни ижтимоий-ҳукуқий ҳимоя қилиш, хизматини муносаб тарзда рағбатлантиришга ҳам алоҳида эътибор қаратилаётганини таъкидлади.

– Жамоат хавфсизлигини таъминлаш, жиноят ҳамда ҳукуқбузарликларнинг барвақт олдини олишда ички ишлар органларининг моддий-техник базаси замон талаблари даражасида таъминланган бўлиши лозим, – дейди вилоят ИИБ ЖТСБ бошлиғи, полковник



Сардорбек Раҳимов. – Айниқса, соҳанинг энг замонавий транспорт воситалари, инновацион технологиялар ҳамда барча қулийларга эга бўлган маъмурий бинолар билан таъминланиши



хизмат самараదорлигига эришишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Тадбирда вилоят ИИБ ЖТСБ ППХ батальони ходимларига маҳсус жиҳозланган замонавий русумдаги 5 та электромобиль ҳамда ЙҲҲБ ЙПХ инспекторларига 2 та хизмат мотоцикллари тантанали равишда топширилди. Ушбу транспорт воситалари иқтисодий ва экологик жиҳатдан жуда қулай ва тежамкорлиги билан ажралиб туришини алоҳида таъкидлаш лозим.

Тадбир якунида хизмат вазифасини баъжишда самараали натижаларга эришаётган бир гурӯҳ ходимларга бадиий китоблар жамланмаси совфа қилинди.

**Худойберган ЖАББОРОВ,
«Postda» мухбари.**



ОИЛА-ТУРМУШ ДОИРАСИДАГИ ЖИНОЯТЛАР

уларнинг сабаб ва омиллари нимада?

Республикамизда содир бўладиган жиноятлар, ҳукуқбузарликлар ҳисоботини кўздан кечириш асносида, уларнинг салмоқли қисмини оила-турмуш доирасида, кўни-кўшнилар ўртасида юз берадиган турли кўнгилсиз ҳолатлар ташкил этишини кўриб ҳар қандай кишининг юраги эзилиши турган гап. Ўғил отага қўл қўтарган, эр хотинини пичоқлаган, жиян тоғасини ўлдирган, невара бувисига жароҳат етказган, кўшнилар жиққамушт бўлган... Бу каби салбий ҳолатлар нега кўпайиб боряпти? Бунинг сабаблари нимада?

Кимлардир буни ижтимоий тармоқлар, интернет туфайли, дейди. Баъзилар таълим-тарбиянинг издан чиқиши билан изоҳлайди. Яна кимлардир оиласлардаги носоғлом муҳит билан боғлайди. Рўзгордаги моддий етишмовчилик, ишсизлик, спиртли ичимликларга ружу қўйиш, хиёнат, рашқ, мерос талашишни ҳам сабаб қилиб кўрсатадиганлар бор. Ҳа, оила-турмуш доирасида келиб чиқаётган жанжалларга юқоридаги омиллар ҳам маълум маънода сабаб бўляпти, албатта.

Ўтган йилнинг 15 октябрь куни Фарғона вилоятининг Бувайдага туманида фуқаро А.К. қайнотаси ва турмуш ўртоғи билан жанжаллашиб қолади. Жаҳлига эрк берган йигит уларни уриб, турли даражада тан жароҳати етказади.

2022 йилнинг 22 октябрида эса Қашқадарё вилоятининг Чироқчи туманида яшовчи С.Д. ўзаро келишмовчилик оқибатида қариндоши К.Р.нинг қорнига ва ўнг оёғига пичноқ санчиб олади. Жанжал пайтда уларнинг ҳар

иккаласи ҳам спиртли ичимлик таъсирида бўлган.

Қанчалик аччиқ бўлмасин, бир ҳақиқатни тан олишимиз керак. Яъни, илгари буви-буваларимиз борига шукур қилиб яшашган, сабр-қаноатли бўлишган, ҳалол-ҳаромнинг фарқига боришган. Оилада хотин билан эрнинг ўз ўрни бўлган. Бугун-чи?!

Афсуски, бугун оиладаги шароитни ҳисобга олмай, эридан осмондаги ойни олиб беришни талаб қиладиган хотинлар ҳам учраб туради. Энг ачинарлиси, айрим ориятсиз йигитлар турмуш ўртоғига «Дадангга айт, менга машина совфа қилсин, уй олиб берсин», дейишдан ҳам тап тортмайди. Бу каби ҳолатларнинг келиб чиқиши, оила-турмуш доирасидаги жиноятларнинг кўпайишининг тагзамирини оиладаги муҳитнинг бузилганида, тарбиянинг йўқлигига, деб ўйлайман.

Таҳлилларга кўра, жиноятлар, келишмовчиликларнинг аксарияти мастлик оқибатида юз берган. Хусусан, ўтган йилнинг 9 ойи

давомида оила-турмуш доирасидаги жиноятларнинг 47 таси мастилик ҳолатида содир бўлган. Энг ёмони, оила-турмуш доирасидаги жиноятлар айрим ҳолларда инсонларнинг бевақт ҳаётдан кўз юмишига ҳам олиб келган.

Авваллари ота ёки она гапираётганда, фарзандлар уларнинг гапини бўлмай жим туриб эшишишган. Ҳозир эса одоб-ахлоқнинг кўчасидан ҳам ўтмаган баъзи фарзандлар ота-оналарини гапиртирилмай, «Сиз аралашмай жим ўтиринг!» деб уларнинг оғзига ураётганларини ҳам кўряпмиз.

Одатда оила-турмуш доирасидаги жиноятларнинг аксарият қисми хонадонларда юз беради. Энг афсусланарли жиҳат шуки, бундай аянчли манзарага кўп ҳолларда болалар «томошабин» бўлишяпти. Ҳўш, энди ўзингиз айтинг-чи, ота-онасининг ҳар кунги жанжалидан безган, оилада баҳт, шодлик топмаган болаларнинг келажаги нима бўлади? Күш уясида кўрганини қилмаслигига, улар ҳам катта бўлса, кимнидир азобламаслигига ким кафолат бера олади?!

Оила-турмуш доирасидаги жиноятларга барҳам бериш, уларнинг олдини олиш борасида ички ишлар органлари ходимлари, хусусан, профилактика хизмати вакиллари томонидан кўплаб чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Ҳудудий профилактика инспекторлари хонадонма-хона-

дон юриб, оиласларнинг моддий аҳволи, муаммоларини ўрганишмоқда. Зарур ҳолларда моддий-маънавий ёрдам, ҳукуқий кўмак кўрсатиляпти. Бунинг натижасида кўплаб муаммолар ҳал этилиб, ажрашиш остонасидаги оиласлар сақлаб қолинмоқда. Бироқ, «Қарс икки қўлдан чиқади», дейишади. Нотинч оила аъзоларига «Тўғри бўл, уриш-жанжал қилма» деб минг марта тақрорлаган билан, ўша оиласда мұхит бузилган, тарбия издан чиқсан бўлса, бундай насиҳатларнинг фойдаси бўлиши мушкул. Ўша оила аҳли ўзлари ярашишга, ўзаро муроса-мадора қилишга интилишмаса, бундай ҳолатда олиб борилаётган тарғибот-ташвиқот ишларининг самараదорлиги пасаяди, албатта. Шундай экан, авваламбор, оиласда ёш авлод тарбиясини тўғри йўлга қўйиш мақсадга мувофиқдир.

Зеро, ҳеч қайси хонадонда одамларнинг ўзаро муносабатлари бирданига ёмонлашиб қолмайди, жанжаллар тўсатдан содир бўлмайди. Оиладаги носоғлом муҳит ойлар, йиллар давомида шаклланади. Шундай экан, кўнгилсизликларнинг барвақт олдини олайлик, яқинларимизга меҳр-оқибатли бўлиб, уларни ҳар қандай вазиятда ҳам тушунишга интилайлик, асраб-авайлайлик.

**Лазизбек ТЕМИРОВ,
ИИВ Академияси курсанти.**





Halollikni shior qilgan xodimlar

«KECHIKTIRIB BO'LMAS ISHI» O'TMADI

Ko'cha to'la odam. Nariroqdagi maktabdan bir guruh yoshlar chiqib kelyapti. Har birining yelkasida «Bitiruvchi» deb yozilgan rangli tasma. Ularning gulgun chehrasida baxtiyorlik aks etib turibdi.

Guliston tumani IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Is'hoqjon Sangirov yoshlarning mana shunday xotirjam yurishida o'zining ham xizmatlari borligini o'ylab ich-ichi dan g'ururlandi. Vaqti bo'lishi bilan maktabga kirib, bitiruvchilar bilan suhbatlashgani, ularning orasidan ijtimoiy himoyaga muhtoj, notinch oila vakillari bilan alohida shug'ullangani bir-bir ko'z oldidan o'tdi. Maqsadi — yoshlar kelajakda to'g'ri, halol, oilasiga sadoqatli insonlar bo'lib yetishsin.

Afsuski, hayotda o'z vijdoniga xiyonat qilib, qonunga xilof ish yuritadigan insonlar ham uch-rab turadi. Yaqinda shunday shaxslardan biri uni pul evaziga sotib olishga urindi.

2023-yil 2-iyun. Guliston tumani IIBga fuqaro Abdushokir Saidaliyevdan (ism-shariflar o'zgartirildi) ariza kelib tushdi. U o'z arizasida shu tumanda yashovchi Usmon Umarov ismli shaxs uning oilasini jar yoqasiga yetaklayotganini keltirib, holat yuzasidan qonuniy chora ko'rishni so'ragan. Arizani o'rganish profilaktika inspektori Is'hoqjon Sangirovga topshirildi.

Is'hoqjon arizada ko'rsatilgan fuqaro U. Umarovni xizmat xonasiga taklif qildi. Surishtiruv jara-

yonida u dastlab barchasini inkor qilib turaverdi. Biroq arizada keltirilgan ma'lumotlar bilan uning ko'sratmalari solishtirilganida, U. Umarov yolg'on gapirayotgani ma'lum bo'lib qoldi. Holat yuzasidan hujjatlar to'ldirilib, tushuntirish xati olindi. Lekin Usmon Umarov «kechiktirib bo'lmas ishi» borligini aytilib, hujjatlarga imzo qo'ymay chiqib ketdi.



Ertasi kuni takroran chaqirtirilganda esa, uning ruhiy holati yomonlashgandi. Qilgan ishi ovoza bo'lishidan qo'rqib, talvasaga tushganligi ko'rinish turardi. U profilaktika inspektoriga ushbu ishi bosdi-bosdi qilish, voqeani ovoza qilmaslik evaziga 500 AQSH dollarini miqdorida pul taklif qildi. Is'hoqjon pora berish jinoyat ekani, buning

uchun jinoiy javobgarlik mavjudligini tushuntirdi. Lekin U. Umarov o'z taklifini qayta-qayta ayтиb turib oldi.

Is'hoqjon Sangirov belgilangan tartibda ushbu holat bo'yicha o'z rahbariyatini xabardor qildi. Viloyat IIB boshlig'i nomiga bildirgi kiritildi. Tezkor tadbir rejasi ishlab chiqildi...

Usmon Umarov profilaktika inspektorining xonasiga kirib kelib, yana bir bor arizani yo'q qilishni, ishni yopishni iltimos qildi. Buning evaziga pul berishini aytilib, yonidan 200 AQSH dollarini olib, tortmaga solib qo'ydi.

— Qolganini keyinroq beraman, hozircha bori shu, — dedi Usmon Umarov.

Shu paytda viloyat IIB JQB tekzor xodimlari uni ashyoviy dalil asosida qo'lga olishdi.

Kasbiga, qasamyodiga sadoqatini saqlab qolgan Is'hoqjon Sangirov 1995-yilda Guliston tumanida tug'ilgan. U 2020-yildan IIB tizimida xizmat qilib kelmoqda. Faoliyatini Shirin shahar «Farhod» mahallasi profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. O'tgan yili Guliston tumani IIB HPB Ahmad Yassaviy nomli mahalla profilaktika inspektorligiga o'tkazilgandi.

Katta leytenant I.Sangirov yosh bo'lsa-da, mas'uliyati, yuksak insoniy xislatlarga egaligi bois ko'pchilikning hurmatiga sazovor bo'lib kelmoqda.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
«Postda» muxbiri.

Sirdaryo viloyati.



Bir jinoyat muhokamasi



Gurlan tumanida yashovchi B.Mahmud qarindoshi M.Eshmat (voqeal ishtiroychilarining ism-sharifi o'zgartirildi) bilan mo'may daromad topish ilinjida pinhona reja tuzishadi. Ya'ni, tumandagi «Jaloyir» mahallasida yashovchi Umidjon Ischanovning yaxshigina daromad topishini eshitib, u bilan tanishadi. So'ngra uni qo'rkitib, ko'chada tinch yurishi uchun aytilgan pullarni o'z vaqtida berib turishini, aks holda, uning mol-mulkiga jiddiy ziyon yetkazishini aytishadi.

Bu do'q-po'pisalardan esanki-rab qolgan Umidjon ularning shartiga rozi bo'ladi. Xullas, harom luqma yeyishga odatlangan bu ikki kimsa 2022-yilning 6-dekabr kuni-dan joriy yilning fevral oyiga qadar U. Ischanovdan 58 million so'm pul olib, o'z ehtiyojlariga ishlatishadi. Ammo bu bilan chegaralanib qolmasdan, Umidjondan yanada ko'proq pul undirish yo'llarini izlay boshlashadi.

Joriy yilning 6-8-iyun kunlarida U. Ischanova qo'ng'iroq qilib, 10 ming AQSH dollari olib kelishini tayinlashadi. Agar ushbu shartga rozi bo'lmasa, unga tegishli bo'lgan transport vositalarini tortib olish bilan qo'rkitishadi. Nopok Kimsalarning navbatdagi talabini bajarolmagan

U. Ischanov oxir-oqibat tuman IIBga murojaat qilishga majbur bo'ladi.

O'z nafsining quliga aylangan bu kimsalar joriy yilning 10-iyun kuni soat 14:00 larda tumandagi Mustaqillik ko'chasida joylashgan «Ilhomboy» kafesida talab qilingan 10 ming AQSH dollarini olgan paytida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan qo'lga olindi.

Ushbu holat bo'yicha tuman IIB huzuridagi tergov guruhi tomonidan B.Mahmud hamda M.Eshmatlariga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda.

Mazkur jinoyat keng jamoatchilik vakillari ishtiroykida muhokama etildi. Jinoyatning sodir etilishiga

imkon bergen omillarni o'rganish hamda kelgusida bu kabi noxush holatlarning oldini olishga qaratilgan yig'ilishda viloyat IIB, tuman prokuraturasi, tuman hokimligi, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi mas'ul xodimlari, mahalla fuqarolar yig'ini faollari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtiroy etishdi.

Jinoyat tafsilotlari yuzasidan so'zga chiqqanlar jinoyat hamda huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar va ularning natijalariga to'xtalib o'tishdi. Ayniqsa, mahalla faollari bilan hamkorlikdagi tadbirlar talab darajasida emasligi tanqid qilindi. Shuningdek, jinoyat muhokamasida «Yangibog» mahalla fuqarolar yig'ini raisi D.Vapoyev, profilaktika inspektori, katta leytenant F.Ukinbayev, mahalla imom-xatibi K.Sapayev hamda mahalla faollari ushbu jinoyat yuzasidan o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Muhokama yakunida, mazkur jinoyatning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillar atroficha o'rganilib, tegishli qaror qabul qilindi.

Xudoybergan JABBOROV,
«Postda» muxbiri.

Xorazm viloyati.
Suratda: jinoyat muhokamasidan lavha.

Sa'dulla ABDULLAYEV
olgan surat.

**Ветераны всегда в строю**

Представители руководства УВД и ветеранской организации пожелали Умиджону Салиеву здоровья, благополучия, выразили уверенность в том, что он будет продолжать вносить достойный вклад в дело воспитания молодого поколения стражей правопорядка.

У. Салиев выпускник Андижанского инженерно-экономического института. Службу в органах внутренних дел начал в 2003 году начальником канцелярии Управления профилактики правонарушений УВД Андижанской области. Затем работал помощником дежурного дежурной части Андижанского ГОВД, инспектором-дежурным, помощником начальника дежурной части, старшим инспектором, начальником отдела организации деятельности дежурных частей, начальником дежурной части Организационного управления УВД Андижанской области. Принимал активное участие в оснащении подразделений современной аппаратурой, обучении сотрудников, ныне работающих операторами

Недавно на заслуженный отдых провожали начальника дежурной части Организационного управления УВД Андижанской области подполковника Умиджона Салиева. В ходе мероприятия было сказано немало добрых слов о личных качествах виновника торжества – преданности профессии, ответственности, умении образцово выполнять сложные задачи.



автоматизированной системы «102».

По стопам Умиджона пошли и два его младших брата. Улугбек занимает

ответственную должность в структуре Национальной гвардии, подполковник. Нодирбек – дознаватель Следственного

управления при УВД Андижанской области, майор.

– Моими наставниками были полковник

Искандар Исмаилов, подполковники Тулкин Мирзаабдуллаев, Абдулкодир Ибрагимов, ныне находящиеся на заслуженном отдыхе, – говорит герой очерка. – В период моего профессионального становления они щедро делились опытом, знаниями, помогали в трудную минуту. Спасибо им.

За годы профессиональной деятельности Умиджон Салиев воспитал немало достойных учеников, среди которых подполковник Баходиржон Кодиралиев, майоры Хамидилло Солиев, Насибилло Кораходжаев, которые успешно несут службу в подразделениях УВД Андижанской области.

Борис КЛЕЙМАН,
корреспондент
«На посту».
Андижанская область.

**Молодежь – наше будущее**

СТУПЕНИ СТАНОВЛЕНИЯ

Служебную деятельность в качестве инспектора-психолога по вопросам несовершеннолетних ОПП УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района города Ташкента лейтенант Гоззал Ибрагимова начала относительно недавно. Она выпускница Академии МВД Республики Узбекистан 2022 года, причем окончила высшее образовательное учреждение с дипломом отличия.

– Еще раз убеждаюсь в том, что не ошиблась с выбором профессии, – говорит наша собеседница. – Стремлюсь оправдать надежды наставников, а также родителей. В семье я самая младшая. С ранних лет родители прививали нам чувство ответственности, стремление к самосовершенствованию. Наряду с учебой, занималась большим теннисом, осваивала игру на дутаре, посещала курсы английского языка, получила сертификат 6.0 IELTS.

...Будучи на проверке в школе №187, лейтенант Г. Ибрагимова выявила у учащегося 10 класса зависимость к играм в телефонном устройстве. Пригласив отца несовершеннолетнего, хотела провести профилактическую беседу, на что

мужчина дал понять, что не владеет ни государственным, ни русским языками, является гражданином США. Инспектор-психолог применила свои знания английского и свободно провела диалог.

К лейтенанту Г. Ибрагимовой нередко обращаются родители подростков за консультацией. Как-то к ней пришла мама одного из несовершеннолетних, сказала, что не справляется с поведением своего ребенка – мальчик до поздна гуляет на улице, иногда не приходит домой. Изучив личность подростка, его взаимоотношения со старшими и сверстниками, Г. Ибрагимова начала работать с ним индивидуально. Спустя три недели мама вновь обратилась к героине нашего очерка, но теперь



со словами благодарности – мальчик осознал, что за него искренне переживают, изменил поведение в лучшую сторону.

у лейтенанта Г. Ибрагимовой много планов на будущее. В

настоящее время она осуществляет докторантуру в Узбекистане, постоянно находясь на связи с педагогами Академии МВД Узбекистана.

Соб. корр.

MA'RIFAT BO'STONI



ONA

Ona bedavo dardga yo'liqdi. Davoning narxi baland edi...

Onaning besh farzandi bor edi. Ikki o'g'il va uch qiz. Ular uyli-joyli bo'lib, bir-biriga suyanib yashashardi. Chunki ularning ham farzandlari bo'lib, ro'zg'orlarini amallab tebratishardi. Otalari ikki yil burun qazo qilgan edi...

Farzandlar o'zaro maslahatlashib qo'llaridan kelgancha onalariga madad bo'lismaydi, biror-bir yordam berish uchun yig'ildilar. Ona ularning hol-ahvolini ko'rib, dardini doston qilmadi. «Do'xtirlar tashxis qo'yishda yanglishibdi, dedi. So'ng sekin shivirladi: Men soppa-sog'man, jonioim bolalarim, hech narsani o'ylamanglar, tashvish chekmanglar».

Bolalar asta boshlarini ko'tarib, bir-birlariga «xayriyat» deganday yengil nafas oldilar. Ona ulug', bolalar esa hali bola edi.

Ona, sho'rlik va mehribon ona bir haftadan so'ng vafot etdi. Dono va oqila ona dardini o'zi bilan olib ketdi.

YAXSHI XOTIN



- Muxtorjon, nima gap? Uyda janjal bo'ldimi, deyman?
- Xotin bilan yana ozgina janjallahdik-da, oqsoqol.
- Janjal qildingmi yo kelinni urdingmi?
- Shu, tili chayon. Gap qaytarganida og'zi yopilmaydi. Shunga urdim.
- Urganingda xotining ko'chaga qochdими yo uyg'a kirdimi?
- O'zini darrov uyg'a urdi, oqsoqol. Nimaydi?!
- Gap qaytarish xotinlarga tekkan bedavo kasal. Endi xotinni urma, bola. Qaytib qo'lingni tekkizma, kelin yaxshi xotin bo'ladi.

Ashurali JO'RAYEV.

AQLLILIK BALOSI



– Bilasan, o'rtoq, men yoshligidan otni yaxshi ko'raman. Shu... keyingi paytda otim ko'p kasallananadigan bo'lib qoldi. Mol do'xtiri muolaja qilsa, ancha o'ziga keladi-da, keyin tag'in mazasi qochadi. Hayronman, otim ko'p og'riydi-yu, eshagimga balo ham urmaydi...

– Nimasiga hayron bo'lasan! Jonivorlar ham odamga o'xshaydi. Ot – aqlii jonivor, ko'p o'laydi, eshak esa g'irt ahmoq. Shuning uchun kasal ham bo'lmaydi!

OTALAR VA BOLALAR

U oddiy odam edi. Hammolchilik qilardi. To'rt qiz, uch o'g'ilni oyoqqa turg'azdi. O'g'illarini uylantirdi. Qizlarini chiqardi. Hammasini uyli-joyli qildi.

Ko'z yumayotganida «Hammalaringdan mingdan-ming roziman», dedi...

Qarashsa, kafanligi yo'q ekan...

**O'tkir HOSHIMOV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.**

BUVI

Televizorda chiqqan nevarasiga qarab, «Hah, o'zimning bulbulovoz bolajonim-a, qo'shig'ing o'ynatadi-ya» deb o'ynayverdi momo! Atrofdagilar na «Bu intervyu beryapti» deyishdi, na «Sizning qulog'ingiz uch yildan beri eshitmaydi-ku» deyishdi. Momo qo'llarini ko'tarib-ko'tarib o'ynayverdi.

Aziz NUR.

YO'QLOV

Momo xamirli qo'llarini artib, nabirasi keltirgan tugunni yechdi. Issiqqina patir ustida qip-qizil bo'lib pishgan somsalar...

Ichida narigi qishloqda yashaydigan qizini koyib qo'ydi: «Men och qolayotuvmidim?! Sakkizta bolasining og'zidan yulib, menga ilinadi-ya... Har kuni shu ahvol. Hali to'rttagina manti, hali yupqa... Uyi yaqin bo'lsa ekan. Kenjatoyini besh chaqirimdan har kuni yogurtiradi. Hah, omon bo'lgur-a...»

Ikkinci tugunchani yechdi. Bu bir devor qo'shni turadigan bizneschi qizidan edi.

Tavba! Qayoqdan kun chiqdi? Bu nima qilgani? E-ha, non yopibdi-da...

Kecha non so'rab chiquvди. Elakday keladigan nonning yarmini sindirib oluvdi. Ko'p olsa, qotib qolarmish. O'zicha... qarzini qaytaribdi-da... Omon bo'lgur...

Momo kichkinagina kulchaga termilib goldi...

Nuriddin EGAMOV.





Мулоҳаза

САҲНА МУҚАДДАС, БИРОҚ...

Элимиз ардоғидаги устоз санъаткорларимиздан «Саҳна – муқаддас, унинг ўзига яраша масъулияти ҳам бор. Санъат йўлини танлаган инсон халқнинг назарида бўлади. У буни унутмаслиги ва ҳар жиҳатдан жамоатчиликка ўrnak бўлишга ҳаракат қилиши керак», деган фикрни эшитганимизда, уларнинг қалбидаги санъатга бўлган чексиз меҳрни ҳис этамиш. Бироқ бугун «машҳурлар саҳнаси»даги юлдузларни кузатиб, унинг «об-ҳаво»сига бу фикр қанчалик хос экан-а, дея ўйланиб қоласан киши...

Хозирги кунда шоу-бизнесни ҳеч иккиланмай, ижод ахлининг санъатидан кўра шахсиятини тарғиб этувчи «саҳна» дейишимиз мумкин. Ва бу «саҳна» тобора кенгайиб, кундан-кунга ўта майшийлашиб бормоқда. Бунда ижтимоий тармоқлар энг яқин кўмакчига айлангани эса ҳеч биримизга сир эмас. Тўғри, орамизда ҳаммаси замонасига яраша, дея иккинчи қирғоқдан туриб фикр билдирувчилар ҳам бор. Бироқ шоу-бизнесга оид қарашлар ҳақиқий санъат, саҳна, санъаткор қадри деган тушунчаларга акс таъсир этмаслигига ишончингиз комилми?!

Масаланинг ўйлантирадиган жиҳати айнан шунда. Мисол учун, санъат оламига эндиғина қадам қўйган, халқона тилда гапирадиган бўлсак, илк қўшиғи хит бўлган ёш хонанда ёки бўлмаса, бир лойиҳада эпизодик роль ижро этиб, одамлар эътиборига тушганларнинг атрофидаги турли шов-шувли миш-мishлар, шахсий ҳаёти, яшаш хонадони, автомашинасидан тортиб, кийган кийими ва харидни амалга оширган савдо маркази, ҳатто гўзллик салонигача одамлар учун қизиқ. Ва шу талабга яраша ўз «фаолиятини» шу тахлит йўлга қўйғанлар борки, бу борада изланиш шартмас. Ҳа энди, нима дейсиз, бу – шоу-бизнес...

Бугун бу юлдузлар «саҳна»сига назар солган кишининг кўнглидан бу майдонда туриш ҳақиқий санъат, маҳорат, тажриба орттиришдан кўра кўпроқ «салоҳият»нинг сарф этилишига сабаб бўлмаятимикин,

деган савол туғилиши ҳам бор гап. Шу ўринда таниқли, элимиз сўйган айрим санъаткорлар, уларнинг ҳаёти ва ижоди билан боғлиқ турли лавхалар ижтимоий тармоқ саҳифаларида оммалашаётганини ҳам тан олишимиз керак.

Санъаткор ижоди орқали кенг жамоатчилик маънавиятига таъсир этиб, унинг рухиятида тозартирувчи фикрлар уйғотиб, ҳаётдан тўғри хуласа чиқаришга ундейди. Мисол учун, Ўзбекистон халқ артистлари Ҳамза Умаров, Фани Аъзамов, Зайнаб Садриева, Лутғифхоним Саримсоқова, Марям Ёкубова, Тўти Юсупова сингари устоз санъаткорлар бу ёруғ оламни тарқ этган бўлса-да, улар ўз ижролари билан ҳар бир томошабин қалбига муҳрланиб қолган. Кундалик турмушда улар яратган халқона образлар тилидаги «Тош-тош...», «Абдуллани ўйлантирамиз...», «Ана сурпризу мана сурприз...», «Ўнта қўй нима бўлади?» тарзидағи сўзлар ҳанузгача халқимиз дилига жо бўлиб, катта-кичик давраларда самимий, енгил кулгу уйғотиши ҳам бор гап.

Бу мисолларнинг мавзуга қандай боғлиқлиги бор, дейишингиз табиий, албатта. Боғлиқлиги шундаки, кенг жамоатчилик бугун шундай санъаткорларни шахсий ҳаёти билан эмас, санъати билан хотирлайди, қадрлайди. Ва улар ижросидаги асарларни, у хоҳ спектакль, хоҳ кино бўлсин, экран қаршисига михланиб ўтириб томоша қиласди. Яна бир жиҳат шундаки, улар яратган образларнинг бири иккинчисини тақорламайди.

Ва ҳар бирида алоҳида ёндашув, характер, қиёфа бор... Бу ҳар бир санъаткорнинг маҳоратига ҳамда ижодкорлигига боғлиқ, дейишингиз мумкин. Аммо ҳозирда айнан шу жиҳатнинг бирор сўроқ остида қолишига сабаб бордек, назаримизда.

Бунинг сабабларидан бири замонавий косметологиянинг ривожи ва бунга санъат ахлининг ниҳоятда учлиги, дея бемалол айта оламиз. Аччиқ, аммо очиқ ҳақиқатни тан олиб, актрисалардан тортиб, хонандаларнинг қош-қўзларига, лабларига бир разм солинг.

Уларнинг ороланган қиёфаси икки томчи сувдек ўхшашлигидан адаштириб қўясан киши. Балки бунчалик «гўзаллашув»га интилишни тақлид десак, тўғри бўлар. Энди шу ўринда ҳақли бир савол туғилади. Ўзбек қизларининг ҳусну малоҳатига азал-азалдан ҳавас қилганлар кўп. Бироқ бугун айрим хонандаларга боқиб, уларнинг ўзбекона ҳусни, латофати ҳани, деганингизни билмай қоласиз. Қолаверса, саҳна санъат намойиш этиладиган муқаддас жой, лабни шишириш, қош-қўзни чизиш билан юқтирилган истеъдоддага ранг кирмаслиги айни ҳақиқат-ку.

Майли, хонандалиқда бу ўз йўлига, бироқ замонавий ёндашув билан ороланган қош-қўз, киприк, лаблар



Рассом: Ҳусан
Содиков.

актрисаларга, уларни элга танитган санъатида қанчалик асқатяпти?

Касбий фаолият тақозоси билан ижроилар билан сұхбат жараёнида, улар бир ижроси иккинчисини тақорламаслигига ҳаракат қилишини айтишади. Бироқ унинг асл қиёфасига «муҳрланган» ўчмас қошлар, камондек киприклар ва бошқа замонавий қиёфа унсурлари ҳар қандай қаҳрамон қиёфасига сингиб кетавермаслиги ойдек равшан-ку, ахир... Агар жоиз бўлса, бу ҳолатни идишларнинг сирланиш жараёнига ўхшатиш мумкинdir. Энди сири кўчган идиш-товоқни бир кўз олдингизга келтириб кўринг. Хўш, бу борада сиз нима дейсиз!

Хуллас, бугун шоу бизнес, санъат ахли орасидаги айримлардаги «сирланиш» ҳақидаги аччиқ ҳақиқатларни узоқ муҳокама қилишимиз мумкин. Аслида, бу масала борасида сўз очиш орқали кимларнингдир бошига «сўзтўқмоқ» билан туширмоқчи ҳам эмасмиз. Фақат айримларнинг санъат, саҳнага нисбатан муносабати яхши томонга ўзгаришини айтиб ўтмоқчимиз. Токи, эртанги авлод ҳақиқий санъатни фитратига асл моҳиятида сингдириб, эъзоз кўрсатсан.

Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
«Postda» мухбири.



Менда тақлиф бор

САНГАРДАКДА «TOURIST POLICE» ХИЗМАТИ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛСА...



Нафақат сурхондарёликларнинг, балки бутун республикамиз ахли ҳамда хорижлик сайёхларнинг ҳам севимли масканига айланган машҳур Сангардак шаршараси ҳар йили баҳор-ёз мавсумида янада гавжумлашади. Сурхондарё вилоятидаги Сариосиё туманининг

пурвиқор тоғлари орасидан табиий равишида оқиб тушадиган шаршара манзараси, «Сангардак» маҳалласининг гўзал табиати ва тоза ҳавоси, тошқин дарёси дам олувларга ўзгача кайфият, роҳат бағишлияди. Шу боис, иссиқ ёз ойларида ва дам олиш кунларида ҳамма

табиатнинг бу ажойиб мӯъжизасини кўришга ошиқади.

Табиийки, бу сайёҳлар оқимининг кўпайишига хизмат қиласди. Айниқса, ҳафтанинг жума, шанба ҳамда якшанба кунлари бир кунда 20 мингдан ортиқ ахоли келиб кетади. Қолган кунларда ҳам 5–10 минг нафар атрофидаги маҳаллий сайёҳлар ташриф буоради.

Албатта, бу 3894 нафар фуқаро истиқомат қиласди. Ахоли маҳалла ахолиси учун ҳам яхши. Чунки уларнинг аксарият қисми сайёҳларга хизмат кўрсатиш, савдо-сотиқ билан шуғулланиш орқали даромад топишади. Одамларнинг кўпчилиги меҳмон уйлари орқасидан

рўзгор тебратади.

Бироқ ахоли гавжум жойда уларнинг хавфисизлигини таъминлаш масаласида янайам ҳушёрликни ошириш зарур. Жиноятчилик ва хуқуқбузарликларнинг олдини олиш бўйича керакли чоралар қўрилиши лозим бўлади. Бу борада маҳалла фаоллари, баъзан эса одамлар кўпайганда, қўшни маҳаллалардаги профилактика инспекторлари кўмаклашишади. Бироқ бунинг ўзи етарли эмас.

Чунки саёҳат давомида кимнингдир буюми йўқолиб қолиши ёки бошқа кўнгилсиз ҳолатлар ҳам содир этилиши эҳтимоли йўқ эмас. Шу боис, худуд

да «Tourist police» хизмати йўлга қўйилса, мақсадга мувофиқ бўларди. Бу орқали ушбу дам олиш масканига келадиган хорижлик туристларнинг хавфисизлигини таъминлаш, уларга йўл бошловчилик қилиш, ҳудуд ва унинг табиати, урф-одатларимиз ҳақида батафсил тушунчалар бериш ва уларни таништириш учун ҳам яхши имконият яратилади. Бу эса сайёҳлар оқимининг янада кўпайишига ва ички ҳамда экотуризмни ривожлантиришга хизмат қиласди.

Улуғбек ҲАҚНАЗАРОВ,
Сариосиё тумани ИИБ ҲПБ
профилактика катта
инспектори,
подполковник.
Сурхондарё вилояти.

CHO'MILISHNING HAM QOIDALARI BOR

Yozning issiq harorati kishining cho'milishga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Shu sababli suzish havzalarida nafaqat kichik yoshdagilar, balki yoshi katta kishilarni ham uchratamiz. Cho'milish masalasida doimo hushyor bo'lish cho'kish bilan bog'liq mudhish holatlarning oldini oladi.

Bu borada nimalarga e'tibor berish kerak? Demak, bolalar yoki birinchi marotaba suvga tushgan katta yoshdagilarni suzishga o'rgatish joyi 60–90 santimetrgacha chuqurlikda bo'lishi kerak. Bunday chuqurlikda odam suvdan cho'chimaydi, chunki oyog'i tayanch nuqtaga ega bo'ladi.

Ochiq suv havzalarida suzishga o'rganishda, albatta, suvning chuqurligi bilan birga, oqim tezligini ham e'tiborga olish lozim. Oqim tezligi daqiqasiga 10 metrdan oshmasligi zarur. Yoz oylarida farzandlarimizni suzishga o'rgatish vaqtini to'g'ri tanlash kerak. Ayrim ota-onalar kunning issiq paytidagina (soat 13:00–15:00) suzishga o'rgatishga yoki cho'milishga ruxsat berishadi. Aslida esa ertalab soat 10:00 dan 12:00 gacha va kechqurun soat 17:00 dan 19:00 gacha quyoshning ultrabinafsha nurlari ko'r bo'ladi va ana shu soatlarda cho'milish juda foydali. Cho'milish muddati 5 daqiqadan 25–30 daqiqagacha davom etishi mumkin.

Bolaning yoshi, suzishga tayyorgarligi, suvning haroratiga e'tibor berib, suzish muddati astasekin oshirib boriladi. Yozda katta yoshdagagi bolalar suv harorati +18 bo'lganda, kichik yoshdagilar +20 – +28 dan kam bo'lmaganda, ochiq suv havzalarida cho'milishlari mumkin. Agar suvning harorati +16 dan past



bo'lsa, cho'milmaslik kerak. Suvga tushishdan oldin bosh va ko'krakni ho'llab, so'ng sho'ng'ib olish darkor.

Nihoyatda charchagan yoki qorin och bo'lsa, shuningdek, spirlti ichimlik iste'mol qilingan, chanqoq, kasallik bezovta qilayotgan vaqtarda cho'milmagan ma'qul.

Cho'kayotgan odamni suvdan olib chiqish ham katta mahorat talab etadi. Bunda bir necha qutqarish usullari mavjud. Ulardan biri – cho'kayotgan kishiga orqa tomonidan suzib yaqinlashish,

sochi va qo'llig'i ostidan ushlab, yuzini tepaga qaratib, o'zingizni ushlab olishga yo'l qo'yman holda qirg'oqqa qarab suzish kerak. Harakat usullaridan biri jabrlanuvchining changak quchog'idan ushlab olishdir.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish esa jabrlanuvchining ahvoliga bog'liq. Agar u hushida bo'lib, yurak faoliyati va nafas olishi saqlangan bo'lsa, uning boshini pastga eggan holda, quruq qiya joyga yotqizish va shundan keyin yechintirib, ho'l yoki quruq sochiq bilan artish kerak. Imkoniyatga

qarab, unga issiq ichimlik (choy, qahva, yoshi kattalarga 1–2 osh qoshiq spirlti ichimlik ham berish mumkin) ichirib, issiq ko'rpa bilan o'rash va dam oldirish talab qilinadi.

Agar jabrlanuvchining mustaqil nafas olishi yo'qolib, yurak faoliyati saqlanib qolsa, uning nafas yo'llari tozalanib, iloji boricha, tezroq sun'iy nafas oldirishga kirishiladi. Vaqtida va malakali ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam jabrlanuvchining hayotini asrab qoladi.

Tahlillarga qaraganda, suvda cho'kish kabi baxtsizlik yuz berishiga sabab, avvalo, taqiqlangan joylarda cho'milish, suzishni bilmaslik yoki spirlti ichimlik iste'mol qilish tufaylidir.

Cho'milish borasida hushyor bo'lish kishi salomatligi va xavfsizligining garovidir. Shunday ekan, yurtimizda mavjud cho'milish havzalaridan foydalanganda, hushyor bo'lish, ma'lum qoidalarga amal qilish hamda farzandlarimizning taqiqlangan joylarda cho'milmasligini nazorat qilish orqali ularning xavfsizligini ta'minlash har birimizning burchimizdir.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA
tayyorladi.



КОНДИЦИОНЕР: СЛЕДУЕМ ПРАВИЛАМ

Летом многим знакома ситуация – простудился в жару из-за кондиционера в офисе. Чтобы этого не произошло, необходимо следовать нескольким основным правилам.

Придерживайтесь температурного режима

В теплое время года оптимальная температура воздуха в помещении – 20–25 °C. Даже если хочется быстро охладиться, не стоит опускать ее ниже. Все, что за пределами этого порога, уже нанесет вред здоровью.



Контролируйте влажность воздуха

Кондиционеры сушат воздух, влажность в помещении снижается намного ниже оптимального показателя в 60–70%, в итоге сухость вызывает неприятные ощущения в слизистых (глаза, нос и горло).



Не создавайте сквозняк

В жару ваш иммунитет и так ослаблен, что повышает риск развития инфекционных заболеваний, а сквозняк в этой ситуации действует коварно. Направленный поток холодного воздуха может вести к воспалению, мышечному спазму.

Проветривайте помещение

Кондиционер кондиционером, а в непроветриваемом помещении вы можете заболеть от других вещей, например, от вирусов или инфекции. Либо может начаться аллергия на мелкую пыль. Проветривайте помещение хотя бы раз в два часа.

Не сидите под потоком воздуха

Поток воздуха не должен быть обращен на прямую на людей. Также не нужно ставить на пути воздуха мебель, перегородки, закрывать кондиционер шторами – это нарушает его работу, часто не дает возможности равномерно охлаждать комнату.

Кондиционер нужно чистить

Если не чистить регулярно кондиционер, он начнет с потоками воздуха еще и распространять болезнетворные бактерии. Чистка должна осуществляться минимум один раз в три месяца.



Құшиқаноттар

ШИЖОАТИ ШАХТИДАН БАЛАНД

Масъулият, ижро интизоми, одамлар билан ишлаш маҳорати... Катта лейтенант Нилуфар Мамадисаева айнан шу фазилатлари билан алоҳида ажралиб туради.

Нилуфар Жомбай туманида ишчи оиласида туғилған. Хизмат либоси кийиш истагини биринчилардан бўлиб отаси қўллаб-қувватлади. У мактабни битиргач, ИИВ Академиясига ҳужжат топширди, лекин ўқишига кира олмади. Бир неча йиллик тайёргарлиқдан сўнг орзуши ушалиб, 2016 йилда олийгоҳга ўқишига кирди.

Қаҳрамонимиз 2019 йилдан бўён Жомбай туманида хотин-қизлар масалалари бўйича катта инспектор ла-возимида ишлаб келмоқда. Бир қарашда, бу лавозим терговчи ёки тезкор ходим касбига нисбатан бироз сокиндек. Аммо инспекторнинг кундалик хизмати билан танишаркансиз, иш унчалик оддий эмаслигини ва жуда кўп ўзига хос жиҳатларни ушбу соҳа мутахассиси ҳал қилиши мумкинлигини англайсиз. Жумла-

дан, унга ҳар куни нафақат ҳуқуқий маслаҳат сўраб, балки оилавий низоларни ҳал қилишга муҳтож аёллар ҳам мурожаат қилишади. Йил бошидан бўён зўравонлик қўрбонларига 40 га яқин ҳимоя ордерлари берилиб, 4 та оилани яраширишга эришилди, яна 10 та хона-донда низолар бартараф этилди.

— Одамлар билан ишлаш, уларга ёрдам бериш менга ёқади, — дейди катта лейтенант Н. Мамадисаева. — Суҳбат жараёнида кимнинг ҳийла ишлатиб қувлик қилаётгани, қачон рост гапириётганини биламан. Баъзан ўз аёлига паст назар билан қарайдиган, уни ҳамиша итоаткор бўлиши керак, деб ҳисоблайдиган эркаклар билан тиллашиш осонмас. Бундай оилалар билан ҳамиша ёрдам кўлини чўзишига тайёр ҳамкаслаби-



римиз — профилактика инспекторлари ҳамкорлигida ишлаймиз.

Инспектор хотин-қизлар ўртасида жиноятлар профилактикасиага алоҳида эътибор қаратади. Ва ҳар бир ишни қонун доирасида амалга ошириш зарурлигини тушунтиради.

Ҳа айтганча, қаҳрамонимизнинг масъулиятли хизматини тўлақонли бажаришида

унинг турмуш ўртоғи ҳам ички ишлар органлари ходими эканлиги айни муддао. — Турмуш ўртогим фаолиятимнинг барча машақатларини ҳаммадан кўпроқ тушунади, керак бўлганида, маслаҳат, амалий ёрдам беришига ҳар доим тайёр, — дейди қаҳрамонимиз. — Шубҳасиз, аёл, ҳатто хизмат либоси кийган, қанчалик кучли ва ўзига ишонган бўлмасин,

уйига келиб, эрининг ел-касига бosh қўйишни, болаларини эркалашни орзу қиласди. Ахир, барчамиз учун, энг асосийси, оила — унинг учун яшаймиз. Табиийки, ҳар доим бўш вақт етишмайди. Лекин бўш вақтимни фарзандларим билан ўтказишига ҳаракат қиласман, улар ўз юртига муносиб бўлиб улгайишини хоҳлайман.

Яқинда зиммасига юклатилган вазифаларни жонкуярлик билан адо этиб, туман ривожига муносиб ҳисса қўшаётган бир гурӯҳ жомбойлик аёллар ҳақида ҳикоя қилувчи «Аёл саодати» китоби нашр этилди. Ундан ёш бўлишига қарамай, ўзига билдирилган ишончни шараф билан оқлаётган Нилуфар Мамадисаеванинг хизматидан сўзловчи очерк ҳам ўрин олган. Ниятимиз, қаҳрамонимизнинг хизматдаги қадамлар дадиллиги кейинги эътирофларга йўл очсин.

**Замира БАЛТАЕВА,
«На посту» мухбири.
Самарқанд вилояти.**



Туман ИИБда

НУРОТАНИНГ ТИНИБ-ТИНЧИМАС ПОСБОНЛАРИ

Навоий шаҳридан 50 километр узоқда жойлашган Нурота туманига яқинлашганинг саинин, сизга гўёки пурвиқор тоғлар пешвоз чиқаётгандек туюлаверади. Узундан-узун, маҳобатли тоғларнинг тепаси осмонга туташиб кетганга ўхшайди. Мусаффо ҳаво, гўзал манзаралар баҳри дилингизни яйратади.

Кўхна ва мўйсафид Нур шаҳри қадим-қадимдан «Чашма» меъморий обидаси туфайли минг-минглаб зиёратчиларнинг эътиборини тортиб келган. Денгиз сатҳидан 525 метр баландликда жойлашган чашма ўзининг шифобахш суви, мўъжизавий балиқлари билан нафақат қўшни вилоятликларни, балки чет эллик сайёхларни ҳам ҳайратга солиб келмоқда.

Худудда 90 мингга яқин аҳоли истиқомат қиласди. Уларнинг кўпчилик қисми чорвачилик, узумчилик билан шуғулланади. Сўнгги пайтларда кенгдалалар ўзлаштирилиб, томчилатиб суфориш натижасида дехқончилик майдонларига айлантирилмоқда. Қолаверса, лалмикор ерлардан унумли фойдаланилмоқда. Бу каби



саъй-ҳаракатлар худудда истиқомат қилувчи аҳолининг яшаш шароитларини яхшилаш баробарида, ҳудуд осудалиги таъминланмокда.

Нурота туманида жами 31ta маҳалла фуқаролар йигини мавжуд бўлиб, 28 ta ҳуқуқ-тартибот маскани фаолияти йўлга кўйилган. Профилактика инспекторлари ўзларига бириктирилган маҳаллаларда мавжуд муаммоларни ўрганиб, уларни бартараф этиш учун тегишли ташкилотлар билан ҳамкорлик қилмоқда-

лар. Маҳаллалардаги бешликнинг саъй-ҳаракатлари билан қатор ижобий натижаларга эришилмоқда. Бунда ўз вазифасини сидқидилдан бажараётган, ташаббускор ҳамда жонкуяр профилактика инспекторлари — капитанлар Ҳасан Рўзиев, Элёр Исмоилов, лейтенант Фарруҳ Ўроқовнинг ҳиссаси катта.

Туман ИИБ пробация гурухи катта инспектори, капитан Үтқир Файзиев ҳам ҳудуд осойишталигига муносиб ҳисса қўшмоқда. У пробация назо-

ратидаги 199 нафар маҳкумнинг бандлигини таъминлаш, уларни кундалик турмушга мослаштириш, фойдали меҳнатга ўргатиш каби вазифаларни бажаради. Ўтказилган тарғибот-ташвиқот ишлари натижасида 4 нафар маҳкумнинг жазоси енгилига алмаштирилган бўлса, 30 нафари муддатидан олдин жазосидан озод этилди. Айни пайтда белгиланган мажбуриятларни бажаришдан бўйин товлаган 2 нафар маҳкум озодлиқдан маҳрум этилди.

— Фуқароларга ID-карталари, хорижга чиқиши паспортлари расмийлаштириш, уларни рўйхатга кўйиш, рўйхатдан чиқариш бўйича ҳам самарали ишлар амалга оширилмоқда, — дейди туман ИИБ М ва ФРГ инспектори, катта сержант Орзумурод Мирсоатов.

Жорий йилда 4251 нафар фуқароларга ID-карталари берилди. Туманда истиқомат қилаётган кексалар ва ногиронлиги бўлган шахсларга ID-карталари уйларига бориб расмийлаштириляпти.

**Махлиё ХОЛОВА,
«Postda» мухбири.
Навоий вилояти.**

ЎТГАНЛАРНИНГ ОХИРАТИ ОБОД БЎЛСИН			
ИИВ Фахрийлар кенгаши ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги полковник Азизхўжа ИНОЯТОВнинг вафот этганлиги муносабати билан марҳумнинг оила аъзолари ва яқинларига ҳамдардлик билдиради.	ИИВ Фахрийлар кенгаши ички ишлар органлари фахрийси, истеъфодаги полковник Азиз Эрназаровга акаси Қудрат ЭРНАЗАРОВнинг вафот этганлиги муносабати билан чукур таъзия изҳор этади.		



Веселая пора

«АКТАШ»: ЯРКИЕ ВПЕЧАТЛЕНИЯ



У школьников летние каникулы – пора активного отдыха, игр, спорта.

В оздоровительном лагере «Акташ» МВД Республики Узбекистан, расположенному в живописнейшем уголке столичной области, царит особая атмосфера. В кругу сверстников дети проводят содержательный досуг на свежем воздухе. Походы, дарящие незабываемые впечатления от общения

с природой, викторины, конкурсы, соревнования, игры с участием сказочных персонажей... Здесь функционируют обучающие кружки, которые любознательные ребята посещают с большим интересом. Цель – научиться чему-то новому, узнать больше, провести лето насыщенно и с пользой.

Соб. корр.



ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ

(с 26 июня по 2 июля)



Овен. Вас ожидает карьерный рост. Продемонстрируйте свои профессиональные качества и желание развиваться. Но не забывайте, что человек – это не машина, следует больше заботиться о своем здоровье. Запланируйте встречу с друзьями, состоится значимый разговор.



Телец. Неделя подходит для любых начинаний, особенно ремонта или путешествия. Проблема в том, что Тельцам будет сложно решиться на перемены. Повышенная тревожность и неуверенность в своих силах – то, с чем придется бороться. Заручитесь поддержкой знающих людей.



Близнецы. Вероятны изменения в отношениях в коллективе. Близнецам нужно быть сдержаннее, меньше общаться с людьми, которых они мало знают. Полезно больше находиться на свежем воздухе. Погуляйте в парке или съездите на природу.



Рак. Проведите неделю в комфортном режиме, чтобы избежать проблем со здоровьем. Деловая активность будет вознаграждена, с легкостью справитесь с поставленными задачами. Не исключены поездки и деловые встречи. Раки могут ощутить сильную усталость.



Лев. Могут возникнуть трудности и преграды в делах. Чтобы их преодолеть, надо быть настойчивее. Привлекайте помощников, за действуйте умение организовывать людей. Отличные результаты даст коллективная работа, деловые контакты. Можно начать серьезное предприятие.



Дева. Проявляйте активность и заинтересованность. Медлительные Девы могут затянуть выполнение важного поручения на работе, результат – конфликтная ситуация. Составьте список безотлагательных дел. Уделите больше внимания близким.



Весы. Пересмотрите круг своего общения, начните что-то менять. Слушайте интуицию, консультируйтесь. Может произойти важная встреча или событие, которое вдохновит на определенные перемены в жизни. Посетите выставку или культурное мероприятие.



Скорпион. Важно не перегружаться на работе. Из-за вспыльчивости не исключены проблемы с карьерой и деньгами. Вы пытаетесь контролировать ситуацию, излишне нервничаете. Вам следует эмоционально отстраниться. Посвятите свободное время семье.



Стрелец. Вас ждет активная неделя, непредвиденные события и неожиданные встречи. Могут дать о себе знать нерешенные проблемы, которые вы быстро решите. У вас все получится. Проявятся лидерские качества. Эмоциональное состояние спокойное, ровное.



Козерог. Новые знакомства для Козерогов окажутся чрезвычайно полезными. Оставайтесь открытыми для общения. Дела постарайтесь завершить пораньше. Если хотите, чтобы вас заметили, нужно выйти из тени. Уделайте время общению с близкими и друзьями.



Водолей. Вы на удивление рациональны, последовательны. Любое дело вам по плечу. Но нужно быть теплее в общении с близкими. Решение проблем и трудных задач не откладывайте. От дальних поездок лучше воздержаться. Также не рекомендуется подписывать важные бумаги и заключать сделки.



Рыбы. Рыбам важно настроить себя на успех. Смотрите на вещи оптимистично, все получится. Удачно пройдут деловые переговоры. На пороге профессиональный успех. Будьте коммуникабельны, тактичны, вежливы, люди охотно пойдут вам навстречу.

Bir qo'shiq tarixi



«DAVRAGA TUSH» IJODIY TANDEM MAHSULI

Ko'pgina qo'shiqchi va shoirlarimizning ijodiy tandemni juda omadli kelgan. Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, mashhur so'z ustasi Mirzabek Xolmedov hamda elimiz suygan san'atkori Rustam G'oipov bilan ijodiy hamkorlik natijasida xalqimiz haligacha sevib xirgoyi qilib yuradigan mashhur qo'shiqlar dunyoga kelgan.

Rustam G'oipov intervularining birida shunday degan ekan: «O'z vaqtida to'rtta kitobdan bitta ham qo'shiq chiqara olmaganmiz. Mirzabek Xolmedovning yettita she'rini qo'shiq qilib, xalqning olqishiga sazovor bo'ldik».

Mirzabek Xolmedov ommabop, to'ylarda, davralarda aytildigan bir she'r yozishni o'ylab yurar ekan. Kunlarning birida «Davraga tush» she'rini yozib, uni Rustam G'oipovga olib borib ko'rsatgan. Mana shu voqeaga ham qariyb 37 yil to'libdi.

Hofiz ash'orga kuy bastalab, jilo berib, xalqqa taqdim etadi. Shundan so'ng ushbu ashula xalq orasida juda mashhur bo'lib ketdi. To'ylar, qadrdonlar davrasi shu qo'shiqsiz o'tmas edi. Qo'shiq bastakorlar tilida aytganda, 5 tagina notadan iborat bo'lsa-da, oddiyligi, samimiyligi va o'ynoqiligi bilan xalqona qo'shiq sifatida yashab kelmoqda.

Xuddi shunday ijodiy tandemda yaratilgan «Paxtakor», «O'zbekim yigitlari», «Xato bo'ldi» va «Ona emasnu» kabi qo'shiqlar ham el ichida sevib tinglanadigan xitga aylandi.

Lekin ular orasida eng mashhuri «Davraga tush» qo'shig'i edi.

Vatanim guli – sizlar,
Barno yigit, sho'x qizlar.
Vatanim guli – sizlar,
Barno yigit, sho'x qizlar.

Zamonamda ozod qush,
Davraga tush, davraga tush.
Zamonamda ozod qush,
Davraga tush, davraga tush.

Mehnat qilib tolmagin,
Bor bo'l, endi hormagin.
Mehnat qilib tolmagin,
Bor bo'l, endi hormagin.

Ko'ngillarni qilib xush,
Davraga tush, davraga tush.
Ko'ngillarni qilib xush,
Davraga tush, davraga tush.

El baxtiga bor sizlar,
O'ynangiz yigit-qizlar.
El baxtiga bor sizlar,
O'ynangiz yigit-qizlar.

Chalib torim, kuylay xush,
Davraga tush, davraga tush.
Chalib torim, kuylay xush,
Davraga tush, davraga tush.

Sarvar SOBIROV tayyorladi.



RASSOM XANDASI



Rassom: Husan SODIQOV.

MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinnbosarlari –
mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –
Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –
Sarvar SOBIROV
Georgiy PETROSYAN

Sahifalovchilar –
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

**Obuna masalalari
bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahfalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.

Korxona manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxtatga
olingan.

Buyurtma №V-5518.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50797 nuxsada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.